

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

**MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ
TA’LIMI KAFEDRASI**

ОРИПОВ ҲАБИБУЛЛАning

“5111600 – Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun
“*Xanafiylik mazhabida huquqiy qarashlar*” mavzusida yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar:

o‘q. F.Mallayeva.

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tarix fakulteti dekani

_____dots. A.Xasanov.

“ ” _____2014 yil

Qarshi - 2014

M U N D A R I J A:

Kirish.....	3
1. Hanafiylik mazhabida huquqiy qarashlar	
1.1. Hanafiylik mazhabi shakllanishining asosiy sabablari, islom dini e'tiqodidagi o'rni.....	5
1.2. Burxoniddin Marg'inoniyning fiqh ilmi rivojiga qo'shgan hissi.....	19
1.3. Islomiy huquqiy qadriyatlar va ularning mustaqillik jarayonidagi o'rni.	29
2. Mustaqillik va islom diniy qadriyatlarning zamon talablari darajasida rivojlantirishi.	
2.1. Markaziy Osiyo tasavvufshunosligi va huquq qarashlar.....	34
2.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustaqillik, demokratik va inson huquqlari uyg'unligi.....	45
Xulosa.....	56
Tavsiylar.....	58
Adabiyotlar ro'yxati.....	59

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar ichida ma'naviy o'yg'onish juda muhim ahamiyatga ega. "... Har qaysi insonning Olloh marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tashlashi, umrning mazmunini anglashi avvalambor yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi"¹ deb bu din haqida haqli ta'kidlaydi Respublikamiz prezidenti I.Karimov.

Mustaqillik jarayonida din tafakkuriga uch omil (diniy, ruhiy, moddiy) qo'shilgan bir paytda islom diniga, uning mazhablariga, jumladan xanafiylik mazhabining islom mamlakatlari olamida tutgan o'rnini to'g'ri va obektiv o'rganish, mustaqillik jarayonida din tafakkuriga qo'shgan taraqqiyot bosqichida islomni turli g'ayri islomiy qarashlar va qo'shimchalardan xoli etib Movarounnahrda hanafiylik mazhabi va huquqiy qarashlarini o'rganish malakaviy ishning dolzarbligini tashkil etadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Tanlangan mavzu dolzarbligi va keng qamrovligi tufayli Ma'naviyat va madaniyat, Huquq, faylasuflar tarixchilar, va boshqa soha xodimlari e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. Hanafiylik mazhabida huquqiy qarashlar ilmiy tahlil etish ishning maqsadini tashkil etadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajardik: Markaziy Osiy fiqhлари qarashlari, Burxoniddin Marg'inoniyning fiqh ilmi rivojiga qo'shgan hissasi, va o'rganish; Yassaviya va KubraviY. Bahouddin Naqshband va tasavvufning kamoli. Sufiylik yo'lini ixtiyor etganlarning ma'naviy kamolot bosqichlari:

Shariat, Tariqat, Ma'rifat, Haqiqat. Nafs tarbiyasi va Riyozat ma'rifati. O'zbekistonda ma'naviyat va madaniyat sohasi doir qator

¹ Karimov.I.A "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T.: 2008. 35 b.

monografiya, risola va maqolalar e'lon qilingan². Abduhamedov A.E. Dinlar tarixi. Azimov.A Islom va hozirgi zamon. Al-Buxoriy, Buyug siymolar, allomalar: O'rta Osiyolik mashhur donishmandlar.

Qo'yida nomlari zikr etilgan asarlarda Hanafiylik mazhabida huquqiy qarashlar doir ko'plab qimmatli fikrlar bildiriladi.

Imomnazarov Muhammad Sultanovich Hanafiylik mazhabida huquqiy qarashlar doir o'z fikr-mulohazalarini bayon qildilar. O'rganilayotgan mavzuga bevosita aloqador asarlar ham bo'lib. Biroq bu asarlar faylasuf olimlar tomonidan yoritilgan va ularda yaratilgan asarlarga bir tomonlama baho berilgan.

Hozirgi kunga qadar Hanafiylik mazhabida huquqiy qarashlar mavzusi tadqiqot obekti sifatida olinmagan. alohida tadqiqot obekti qilib tanlashimizga imkon berdi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari: Mavjud asarlar va matbuot materiallariga tayangan xolda Hanafiylik mazhabida huquqiy qarashlar doir natijalarini tahlil qilish.

Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- hanafiylik mazhabi va huquqiy qarashlarini ilmiy tahlil etish .
- Movarounnahrda islomning hanafiylik mazhabi shakllanishining asosiy sabablari, uning islom dini e'tiqodidagi o'rnini o'rganish;

² Abduhamedov A.E. Dinlar tarixi. T.: O'zMU, 2004.- 208 b.

3. Azimov.A Islom va hozirgi zamon. -T.: 1992.

4. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muxammed ibn Ismoil Al-Jome as-sahih (ishonchli to'plam), 4 jildlik T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1999.

5. At -Termiziy. Sahihat -Termiziy. A.Abdulla tarjimasi. T.: F.Gulom islomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.160 b.

6. Ahmad Yassaviy Hikmatlari. T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. -256 b.

7. Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Beruniy AR. Tanlangan asarlar. 1 tom. T.: 1968.

8. Buyug siymolar, allomalar: O'rta Osiyolik mashhur mutafayuxirlar va donishmandlar. K. 1. T.: "O'zbekiston", 1995.- 101 b.

9. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy - ma'rifiy asoslari. "Toshkent Islom universiteti" nashriyoti - matbaa birlashmasi. T.: 2005.

10. Imom al- Buxoriy. Al,- Adab al -mufrad. T.: "O'zbekiston", 1990.

11. Isxoqov M.M. Xal dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida). "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2-son, 1992.

12. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi 1 - kitob. T.: Yozuvchi, 1996.-272 b.

13. Maxmud, Shayx Ismoil. Toshkentdagi Usmon musxafiyning tarixi. T.: 1995.

- Markaziy Osiyo fiqhlarini qarashlari, Burxoniddin Marg'inoniyning fiqh ilmi rivojiga qo'shgan hissasi aniqlash va o'rganish;
- Islomiy huquqiy qadriyatlar va ularning mustaqillik jarayonidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish;
- Markaziy Osiyo tasavvufshunosligi davrida inson va huquq munosabatlarini ko'rsatib berish;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qadriyatlarning zamon talablari darajasida rivojlantirilishini, demokratik va inson huquqlari uyg'unligini o'rganish.

Tadqiqot obekti. Hanafiylik mazhabi va huquqiy qarashlarini ilmiy tahlil jihatlarini tadqiqotning obekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Hozirgi zamon sharoitida siyosiy, axloq, huquq va din o'rtasidagi munosabatlardagi ziddiyatlar huquqiy muhofaza qilish zarurati va O'zbekistonning siyosiy yetakchilik to'g'risidagi qarashlar madaniyatni tartibga solishda huquqiy madaniyatni rivojlantirishda ta'lim tarbiya ishning predmetini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy-metodologik asoslari:

Ishning muhim nazariy-metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Prezident I.A. Karimovning mavzuga taaluqli asarlari, nutqlarida ta'kidlangan yangi nazariya, qarashlari tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda umumilmiy metodlar, ya'ni analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimlashtirish, noaniqlikdan aniqlik tomon borish kabi metodlar bilan birga kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Bitiruv malakaviy ish uchun mavzuga aloqador asarlar va matbuot materiallari manba bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati:

Ishning ilmiy yangiligi yangi adabiyotlar va matbuot materiallariga tayangan holda yangi nazariy metodologiya asosida

Hanafiylik mazhabida huquqiy qarashlar o'ziga xos xususiyatlari, muammo va yutuqlarini ilmiy asosda tahlil etishda ko'rinadi.

- Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qadriyatlarning zamon talablari darajasida rivojlantirishini, demokratik va inson huquqlari uyg'unligini o'rganish. va seminar mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Ishning aprotatsiyasi. Ushbu mavzu Qarshi Davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida qoshi" Milliy g'oya targ'ibotchilari" to'garagida ma'ruza qilindi va kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: kirish, 2 ta bob, 5 – ta paragraf, xulosa va foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1. Hanafiylik mazhabida huquqiy qarashlar .

1.1. Hanafiylik mazhabi shakllanishining asosiy sabablari, islom dini e'tiqodidagi o'rni.

Payg'ambarimiz (S.A.V.) davridan *Tavhid e'tiqodi asosidagi insoniy birodarlik jamoasi* - "*umma*" tushunchasi shakllana boshlagan bo'lsa, VIII asr ikkinchi yarmi - IX asr boshlaridan (750 yil - Abu Muslim qo'zg'oloni va Abbosiylarning hokimiyatga kelishi, 813 yilda Ma'munning xalifalik taxtiga o'tirishi natijasida) mintaqaning uch buyuk xalqi - arab, fors va turkiy elatlar aro siyosiy qudratda o'ziga xos muvozanat holati vujudga keldi, ya'ni Islomning asl g'oyasi - *musulmon ummatining tengligi* amalda joriy bo'lishiga voqe' imkon tug'ildi.

Turli islomiy mazhablar (xanafiya, shofe'iya, molikiya, xanbaliya, ja'fariya), ya'ni islom e'tiqodiga oid qarashlar va amallarning ba'zi farqlarga ega bo'lgan besh yo'nalishi shakllandi, va bora-bora ular orasida bir-birini inkor etmaslik va o'zaro hurmat munosabatlari o'rnatildi. Bunday *turli talqinlar aro o'zaro murosa holati* oxir

natijada e'tiqod masalalarida taassub (fanatizm) va bir yoqlama aqidaparastlik xavfining oldini olishga asos bo'ldi.

Musulmon huquqi - *shariat* va *fiqh* asoslarini shakllantirish boshlandi. Imom A'zam - Abu Hanifa an-Nu'mon bin Sobit (699-767) va uning yaqin shogirdlari Imom Abu Yusuf Ansoriy (731-804) va Imomi Muhammad ash-Shaybon (749-805) bu sohada asoschi bo'ldilar.

Hanafiya Imom A'zam mazhabi bunga Abu Hanifa tahallusi Imomi A'zam – Buyuk imom asos solgan eng yirik huquqshunoslardan biri bo'lib, shariat huquqini tartibga solgan, qiyosni tadbiq etgan istixsom tartib usulini ishlab chiqqan mahalliyxalq huquq qoidalarini odatni shariat bilan keltirib, qo'llanishni joriy etgan huquqshunoslikdan oqilona foydalanish unsurlarini kiritgan.

Hanafiylar mahalliy zodagon va hukumdorlar qabul qilgan nizom va qonunlar mahalliy urf-odatlariga tayangan odatiy an'analar hamda mahalliy elatlarning urf-odati asosida kelib chiqqan odat maqomiga keng tayanishlari islomning ko'chmanchilari orasida ham tez tarqalishga olib kelgan.

Abu Hanifa savdo ishi bilan shug'ullanuvchi bir oilada tug'ilib, yoshlik davrida ipak matolar savdosi bilan hayot kechirgan, ayni holda ilmu ma'rifat va islom ta'limotini o'zlashtirish uni qiziqtirgan. Bir kuni o'sha davrning mashhur olimlaridan biri Sha'biy ilm o'rganish maqsadida olimlar majlislariga ko'proq qatnashishni tavsiya qilib unga «Men senda bir uyg'oqlik va harakatni ko'raman», degan¹. Uning o'giti Abu Hanifaga chuqur ta'sir qilib, uni ilmu ma'rifat tomonga yo'llaydi, bozorga kamroq borsa ham, ota kasbi bo'lmish tijoratni butunlay tark etmaydi.

Birinchi bosqichda Abu Hanifa kalom ilmi bo'yicha yuksak malakaga ega bo'lgan bo'lsa ham, erishilgan muvaffaqiyatlar uni qoniqtirmagan. U fiqh, ya'ni huquqshunoslik ilmi va unga tegishli

bo'lgan fanlarni o'zlashtirish orqali odamlarga keng ko'lamda xizmat qilish va ularning hayotiy muammolarini hal etib berishga erishish imkonini ustun qo'ygan. U kalom ilmi bo'yicha «al-Fiqhul-akbar», «ar-Rislotu ilo Usmonil-Bustiy» (Abu Hanifadan Muqotil rivoyati asosida) va «Ar-raddu alal-qadariya» kabi risolalar yozgan bo'lsa ham, o'z shogirdlari va o'g'illarini ushbu yo'lga o'tishdan qaytargan.

Abu Hanifa fiqh ilmini kimdan o'rgangani haqida «Men ilm va fiqh koni bo'lgan joyda yashab, uning ahli bilan uchrashib, faqihlar jumlasidan birini tanlab oldim», degan.

Abu Hanifa fiqh ilmini o'zlashtirish maqsadida o'sha davrning yirik olimi bo'lmish Hammod Ibn Sulaymonni tanlab olib, uning dare halqasiga o'tirgan.

Manbalarda rivoyat qilinishicha Abu Hanifa yoshlik chog'larida shialar imomi Muhammad Boqir bilan uchrashganda, u bildirgan e'tirozlarni qat'iy va inkor etib bo'lmaydigan dalillar bilan rad qilib imomni qoyil qoldirgan va o'ziga nisbatan chuqur ehtiromini jalb qilgan.

Bulardan tashqari, Abu Hanifa boshqa turli shialik yo'nalishlari, jumladan kaysoniya, zaydiya, ismoiliya va boshqalar bilan muloqotda bo'lgan. Xorijiylar vakillari bilan juda ko'p munozaralar olib borgan. Ko'p yillar Makkada yashash unga sahobalarning eng yirik olimlaridan biri bo'lmish Ibn Abbos shogirdlaridan Qur'on fiqhini o'rganish uchun imkon yaratib berdi. Ibn Abbosning shogirdlari Makkada yashaganlar.

Kufa shahrida Abu Hanifa bilan zamondosh bo'lib yashagan mashhur faqihlardan quyidagilar manbalarda zikr ztilgan: 1. So'fya ibn Sayd as-Savriy (97-161 h.y.) hadis ilmining mashhur imomlaridan biri va atoqli mujtahid bo'lgan; 2. Sharik ibn Abdullo an-Naxa'iy, 95-yil Buxoroda tug'ilib, 177-y Kufada vafot etgan. U fiqh ilmi bo'yicha katta salohiyat va ilmiy maqomga ega bo'lib, Kufa shahrida kamoli

adolat bilan qozilik vazifasini bajargan 3. Ibn Abi Laylo Muhammad Ibn Abdurrahmon Ibn Abi Laylo (74-h.) ray tarafdorlaridan bo'lib, faqih va muftiy bo'lgani uchun Kufa qozisi qilib tayinlangan. Ushbu zamondoshlar bilan Abu Hanifa munosabati qiziqarli bo'lgan.

Abu Hanifa turli siyosiy va ijtimoiy hodisalarga to'la bo'lgan ikki davr - Umaviylar va Abbosiylar davrlarida yashab, ilmiy faoliyat olib borgan va davlat hokimiyati birinchi suloladan ikkinchi sulolaga o'tishining guvohi bo'lgan. U siyosiy tomondan Umaviylar (Ali avlodlari va ularning homiylari) tarafdori bo'lgan bo'lsa ham, tinchlik va xalq manfaatini ko'zlab hech qachon qurol ko'tarib kurashlarda qatnashmagan.

121 hijriy yili Zayd Ibn Ali Zaynul-Obidin,³ Umaviylar xalifasi Hoshim Ibn Abdulmalikka qarshi xuruj qilganda Abu Hanifa uning harakatiga qo'shilmagan bo'lsa ham Ibn al-Bazzoziy «al-Manoqib» kitobida yozishicha, Zayd Ibn Aliga o'n ming dirham pul yuborib, o'z elchisiga «Mening uzrimni unga borib aytgin», degan.

Ummaviylar vakili Marvon ibn Muhammad tomonidan Iroq vo risi qilib tayinlangan Yazid Ibn Hubayra Abu Hanifaga murojaat qilib, unga qozilik vazifasini taklif qilgan, ljin Abu Hanifa uni qabul qilishdan bosh tortgani uchun uni o'n kungacha har kuni o'n qamchi urib jazolagan, lekin Imom bu taklifni qabul qilmagani sababli uni qo'yib yuborgan. Xuzariybek ushbu hodisaga siyosiy tus berib bunday deb yozadi: «Menimcha, Abu Hanifaga qozilik vazifasini taklif etishdan maqsad davlatga nisbatan uning ishonchi va do'stligini aniqlab olish bo'lgan. Aftidan, olimlar o'sha davrda ularga yoqmagan davlatda ishlashni yoqtirmaganlar va uni o'sha davlatni qo'llab-quvvatlash deb bilganlar. Shuning uchun Hubayra Abu Hanifaning

^{3 3} Abduhamedov A.E. Dinlar tarixi. T.: O`zMU, 2004.- 208 b.
3. Azimov.A Islom va hozirgi zamon. -T.: 1992. 108-6

taklif etilgan vazifani bajarishdan bosh tortganini Bani Umayyaga (Umaviylarga) qarshilik deb uni urgandir»². Biz ham ushbu fikrga qo'shilamiz. Nafaqat Ummaviylar davrida, balki Abbosiylar davrida ham imomning savalanishi uchun asosiy sabab siyosiy omil bo'lgan.

Abbosiylar xalifalari siyosiy tomondan Abu Hanifani yoqtirmasalar ham, uning mazhabi va huquqiy ta'limotlariga katta zarurat sezganlar. Chunki ahli hadis mazhablariga nisbatan Hanafiy mazhabi o'zining keng dunyoqarashi, ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni hal etishda keng qamrovli imkoniyatlari bilan, davlat uchun juda kup qulayliklar yaratib, zamon talablariga, voqelikka muvofiq ravishda javob berishga qodir bo'lgan. Lekin shunga qaramasdan, uning muxoliflari ham saroyda, ham boshqa joylarda mavjud bo'lib, o'rni kelganda unga qarshi ig'vo tarqatganlar.

Turli manbalarda bir qator asarlar Abu Hanifa qalamiga nisbat berilgan. Ulardan «al-Fiqqul-akbar», «al-Olim val-mutallim», «Kadariyaga raddiya», «Usmon Busgayga yozgan risolasi» va Dehxudo unta nisbat bergan «al-Ilmu bahran, sharqan va g'arban, bu'dan va qurban» nomli kitobni eslagash mumkin. Kotib Chalabiy «al-Fiqxul-akbar» ustidan sharh yozgan mashhur olimlardan yetti kishini eslatib o'tgan. Ushbu risola ustidan Imom Abu Mansur Moturidiy sharh yozib, undagi asosiy qoidalarni o'z kalam mazhabi uchun asos qilib olgan.

Abu Hanifa qalamiga mansub bir muhim asarning qo'lyozma nusxasi «al-Musnad» nomi bilan O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida R.4815 raqami ostida saqlanmoqda, Nusxaning oxirida: «Imomi A'zam Abu Hanifaning «Musnad» nomli kitobi 870 yil ramazon oyining 29-kuni ko'chirib tugatildi», deb yozilgan Kitob 270 varaq (540 bet)da suls yozuvida yozilgan bo'lib, kitobning ismi ko'rsatilmagan. Boshidan 113 varag'i yo'q. «Musnad» 40 bobni o'z

ichiga oladi. Boblarda Abu Hanifadan rivoyat qilingan hadislar isnodlari bilan mufassal shaklda beriladi.

Ba'zi bir mualliflar Abu Hanifani murjiadan deb hisoblagan. Murjiylar bu dunyodagi inson holatini muhokama qilishi (irjo) qilib, (orqaga surib), insonning hatti-harakatini, uning iymonini yolg'iz Allohning o'zigina biladi va faqat uning o'zi inson ustidan hukm qiladi deb hisoblaydilar. Ulardan ayrimlarining fikricha, iymon faqat ko'ngil ishonchidan iborat bo'lgani uchun, mo'min kishi tili bilan kufr so'zlarini aytib, sanamlarga hurmat ko'rsatib, yahudiylar va nasroniylarga yaqinlashsa, hatto xeshi maqtash bilan taslis (uchtalik)ga moyillik ko'rsatsa ham, yo'qsa mo'min bo'lgan holda jannat ahlidan hisoblanadi.

Ibn Hajar Makkiy o'zining «al-Xayrotul-hioon» nomli asarida quyidagicha fikr bildirgan: bir guruh kishilar Abu Hanifani murjiylardan deb hisoblaganlar, lekin bu so'zning isboti yo'q, sababi: birinchidan, «al-Mavoqif» kitobining sharhlovchisi G'asson al-Murjiy «irjo» (orqaga tashlash) aqidasi Abu Hanifa nomidan naqya qilib, uni murjiylardan deb kelgai Bu esa ig'vo va tuhmatdan boshqa narsa emas. U, shu yo'sinda Imomga nisbat berish yo'lidan o'z mazhabini tarqatishga uringan; ikkinchidan, mo'tazila birinchi bosqichda qazo va qadar masalasi bo'yicha o'zlariga qarshi bo'lganlarni murjiy deb atardilar.

Vahbiy Sulaymon G'ovjiyning yozishicha, amal iymonning bir qismi ekanligini rad etishga asoslangan Abu Hanifa ta'biri ularga yaqinroq bo'lgani uchun Hanafiylar murjiylikka nisbat berilganlar va bu esa zolimonadir. Imom Abu Hanifa bu borada o'z aqidasi o'zining shogirdi Usmon al-Bustiyga yozgan risolasida bayon etgan. Usmon unga «Men sizning murjiylardan ekanligingiz haqida eshitdim», deb yozganda, Imom unga javoban jumladan bunday deb yozganlar: «Ammo, sen tutgan murjia nomiga keladigan bo'lsak, unda

adolatga asoslanib soʻzlab yurgan qavmning qaysi gunohi uchun bidʼat ahdi ushbu nom (yaʼni murjia nomi) bilan ataydilar?! Lekin ular ahli adl va ahli sunnadurlar-ku! Ammo faqat dushman toifa ularni ushbu ism bilan ataganlar»

Maʼlumki, Abu Hanifa oʻz iqtidorli shaxsiyagi va chuqur taʼsir oʻtkazish qobiliyati bilan birga, fatvo berish va hukm chiqarish, hadislarni tushunish va ulardan shariat hukmlarini istixroj qilish (chiqarib olish) boʻyicha oʻziga xos yangi uslub yaratgan. Bu uslubni oʻttiz yil yoki undan koʻproq muddat davomida oʻz shogirdlari va ular bilan aloqada boʻlgan kishilar orqali tarqatishga uringan Albatta, bunday kishi achchiq tanqidlarga uchrash, muxoliflar tomonidan kamsitilish, fikrlari buzib koʻrsatilishi va unga mutaassiblik bilan munosabatda boʻlishlarning guvohi boʻlgan

Taassublar davri boʻlgan IV hijriy asr (922-1022 m.y.) jarayonida uning tarafdorlari va muxoliflari orasidagi munozaralar oʻz avjiga yetgan. Eng ashaddiy munozara Hanafiylar va shofiʼiylar orasida boʻlgani tufayli har ikkala imomga qarata koʻp tuhmat toshlari otilgan. Abu Zahra taʼkidlashicha, hatto baʼzi shofiʼiylar toʻgʻri yoʻldan chiqib gunohga qoʻl urish kabi tuhmatlarni unga havola qilganlar.

Baʼzan, ayrim mualliflar baʼzi soʻzlarni mashhur kishilar aytgan rivoyatlar toʻgʻri tekshirmasdan oʻz kitoblariga kiritganlar. Masalan Xatib Bagʻdodiy Ibn Mahdiydan rivoyat qilishicha, goʻyoki islom uchun «Dajjol»dan keyin Abu Xanifaning ray uslubidan kattaroq fitna mavjud emas emish. Shuningdek, Dextudo «Lugʻatnoma»da Sufyon, Molik, Xammod, Shofiʼiy va Avzoʼiy tilidan quyidagi soʻzlarni keltiradi: «Islomda Abu Xanifadan yomonroq kishi tugilgan emas». Molik tilidan: «Abu Hanifa qoʻzgʻatgan fitna islom ummati uchun Iblis fitnasidan ham xatarliroqdir»

Bunday rivoyatlar mutlaqo asossiz va to‘hmadir. Shuningdek, «Lug‘atnoma»da keltirilishicha, go‘yoki Abu Hanifa: «Lav adrakani rasulullohi, la-axaza bikasiyrin min qavli» (Agar Payg‘ambar mening davrimda bo‘lganda edi, mening ko‘p so‘zlarimga qo‘shiladi degan ekan”)

Abu Hanifa haqida bir qator to‘qima hadislar rivoyat qilingan. Biz ulardan quyidagilarni zikr etamiz: «PaYg‘ambar (alayhissalom) dedilarki: Meni ummatimdan bo‘lgan Nu‘mon ismli, Abu Hanifa kunyali kishi bilan faxrlanaman. U ummatimning quyoshidir»; «Boshqa Payg‘ambarlar men bilan faxrlansalar, men Abu Hanifa bilan faxrlanaman. Uni sevgan kishi meni sevgan bo‘ladi».

Lekin Ibnul-Javziy ushbu hadislarning asossiz va to‘qima ekanligini isbotlab bergan.⁴ Undan keyin mashhur hadisshunoslar hofiz az-Zahabiy, as-Sayugiy, Ibn Hajar Asqaloniy, Shayx Qosim Safiy ham uning fikrini qullab-quvvatlab kelganlar. «Kashfuz-zunun» muallifi hoji Xalifa hanafiy mazhabi haqida quyidagi fikrni yozgan: «To‘rt mazhab ichida birinchi o‘rinda turadigan va haqiqatga eng yaqin bo‘lgani, Abu Hanifa asos solgan mazhabdir. Negaki, ushbu mazhab boshqalaridan ittifoqqa asoslangani, ustuvorligi, oliy iste’dod mahsuli bo‘lganligi, nazariyalarining kuchliligi va ilmul-ahkom sohasida to‘g‘ri fikrlar yuritilganligi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi».

Tadqiqotchilar bildirgan fikrlarni umumlashtirib, Abu Hanifaning istinbot (hukm chiqarish) uslubi quyidagi asoslarga tayangan deb xulosa qilish mumkin:

1. Qur’oni karim ilohiy manba sifatida boshqa manbalarning asosini tashkil etgani uchun Abu Hanifaning fiqhiy uslubida birinchi va asosiy o‘rinda turadi;

3Abduhamedov A.E. Dinlar tarixi. T.: O‘zMU, 2004.- 208 b.

4 Azimov.A Islom va hozirgi zamon. -T.: 1992.

2. Sunna. Payg‘ambarning so‘zlari, amallari, tahrirlari (tasdiqlari)dan iborat bo‘lib, Qur‘ondan keyin ikkinchi o‘rinda turadi;

3. Abu Hanifa sahobalar so‘zlari va ular bajargan amallarga fiqh ilmi bo‘yicha katta e‘tibor berardi, lekin Abu Hanifa nuqtai nazaridan tobilarning so‘zlari bunday yuksak darajada turmaydi;

4. Qiyos uslubi. Biron bir muammoning yechimi Qur‘on Sunna yoki sahobiy qavymidan topilmasa, Abu Hanifa qiyosga asoslanib amal qilardi;

5. Istehson. Bu - qiyosi jaliy (qiyosi zohir - ochiq qiyos) doirasidan chiqib, unga qarshi bo‘lgan hukmni tanlab olishdir. Muhammad Ibn Hasan aytishicha: «Abu Hanifa o‘z suhbatdoshlari bilan qiyoslashga o‘tganda, ular unga qo‘shilishib munozara qilganlar. Ammo istehsonga o‘taman deganda, istehsonda masalalar ko‘p bo‘lgani uchun hech kim unga qo‘shilmasdi (u bilan munozara kilmasdi), so‘ngra hammalari to‘xtab unga bo‘ysunardilar. U Kufa olimlari fiqhini yaxshi bilardi»

6. Ijmo. Ushbu so‘z ittifoq va kelishuv ma‘nosida bo‘lib, fiqhiy atama sifatida bir davr mujtahidlarining bir muayyan hukm bo‘yicha kelishuvidan iboratdir. Ijmo uslubi ushbu kitobda «Islom huquqi manbalari» bobida yoritib berilgan;

7. Urf. Urf ikki xildir: urfi fosid - naslga zid bo‘lgan urf-odat bo‘lib, islom huquqida qo‘llanilmaydi. Urfi sahih - xalqning naslga zid bo‘lmagan urf-odatlari bo‘lib, Islom qonunchiligida, ayniqsa, Abu Hanifa mazhabida katta ahamiyatga egadir.

Abu Hanifaning fiqh uslubida amaliy hayot ta‘sirini yaqqol ko‘rish mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha, ibodatdan tashqari uning hayotida ikkita asosiy yo‘nalish mavjud bo‘lgan: birinchisi, savdogarlik, ikkinchisi, shaxe erkinligini himoya qilish xususiyati. Birinchi yo‘nalish uning fiqh uslubida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, uning mazhabida shirkatlarni tashkil etish, shartnomalar va

bitimlarni tuzish sohasida bir oliy malakali va sinovdan o'tgan tajribalari o'z aksini topadi.

Ushbu xususiyatni uning ilmiy uslubi bo'yicha quyidagi ikki holatda ko'rish mumkin: birinchidan, urfga asoslanish; ikkinchidan, istehsonga e'tibor berish.

Abu Hanifaning fiqh uslubi erkinlik prinsipi bilan yo'g'rilgan. Ta'kidlaganimizdek, Abdulhalim al-Jundiy, Abu Hanifani islom huquqshunosligining barcha sohalarida erkinlik va murosqa qahramoni deb tavsiflagan. haqiqatan ham uning huquqiy qarashlari shaxsiy erkinlikka asoslangan bo'lib, har doim insonning iroda erkinligini hurmat qiladi va hech kimga har bir insonga xos bo'lgan shaxsiy tasarruflariga aralashish uchun ruxsat bermaydi. Shunga binoan jamoa ham, valiyi amr (davlat arboblari) ham bir kishining shaxsiy va xususiy ishlariga, agar u biron bir diniy ishga hurmatsizlik ko'rsatgan bo'lmasa, aralashish huquqiga ega emaslar.

Hanafiy mazhabida erkinlik prinsipi, ayniqsa, turmushga chiqish masalasida balog'atga yetgan oqila qizni majburlamaslik va safih (aqli kam bo'lgan) kishi, shuningdek, qarzdor kishini tasarrufdan man etmaslik kabi masalalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Uni quyidagidek izohlash mumkin: Oqila ayol turmush o'rtog'ini o'zi tanlab oladi. Barcha faqihlarning kelishuvi asosida, hech kim oqila va erkin ayolni o'zi istamagan erkak bilan turmush qurishga majbur qilish huquqiga ega emas.

Boshqa faqihlar ham balog'atga yetgan oqila qiz o'z valiysining irodasiga qaramasdan turmushga chiqa oladi deb bilganlar. Lekin ularga qizning so'zlari nikoh bitimini tuzish uchun yetarli bo'lmagani sababli faqat valiy nikoh bitimini tuzish vakolatiga ega bo'ladi. Ammo Abu Hanifa nazarida qizning o'zi erkak bilan teng huquqli bo'lgani uchun o'z so'zi bilan nikoh bitimini tuzish huquqiga ega hisoblanadi. Bordi-yu ayol o'z tengdoshi bo'lmagan va oilaga oru

isnod keltiruvchi bir kishiga turmushga chiqsa, o'shanda hanafiy mazhabi bo'yicha Faxriddin Qozixon rivoyatiga ko'ra, shuningdek Abu Yusuf fikricha nikoh fosid bo'ladi (buziladi). Ushbu masala mufassal suratida Burhoniddin Marg'inoniyning «al-hidoya» kitobida yoritilgan.

Shuningdek Abu Hanifa madyun (qarzdor) kishini ham o'z moliga tasarruf etishdan man etmaydi, hattoki uning qarzlari barcha molini qamrab oladigan bo'lsa ham. Lekin uningcha madyun turli yo'llardan, jumladan hibsga olish orqali qarzlarini to'lashga majbur qilinadi.

Taxrij va tarjih ikkita fiqhiy atama sifatida sunniylik mazhablarida erkin ijtihod davri (mujgahidlar davri)dan keyin, ayniqsa oxirgi davr faqihlari tomonidan turli fiqhiy manbalarda keng ko'lamda qo'llanilib kelingan.

Taxrijdan maqsad, bir mazhabning umumiy qoidalariga tayangan holda, mazhab imomlari tomonidan hech qanday fikr bildirilmagan hodisalar hukmini isbot qilish (chiqarib olish, belgilab berish) bo'lsa, tajrihda mazhab rahbarlari aytgan turli so'zlar yoki ulardan yetib kelgan turli rivoyatlardan ayrimlarining ustunligini bayon qilish, izohlab berish nazarda tutiladi.

Birinchi guruh, ya'ni taxrij bilan shug'ullanuvchi guruh mazhab bo'yicha muxarrijlardan iborat bo'lib, faqatgina mazhab chegarasida ijtihod qilish vakolatiga ega bo'lganlar. Ikkinchi guruh mazhab doirasida tarjih berish (ustun ko'yish), ya'ni fikrlar va rivoyatlar orasida eng kuchlisini kuchlilaridan ajratib olish yo'l-yo'riqlarini bilgan faqihlardan iborat. Ular nafs orqali belgilab berilmagan hukmlarni istinbot qilish orqali belgilangan hukmlarga qarshi turish huquqiga ega bo'lmaganlar, balki faqat ustun qo'yish yoki kuchli va kuchsiz, sahih va zaif rivoyatlarni bir-biridan ajratib olish salohiyatiga ega edilar.

Muxarrijlar faoliyati bu bilan chegaralanib qolmaydi. Ular o'tgan olimlar fatvo bergan masalalar bo'yicha ham fatvo berib, ularga qarshilik ham ko'rsatganlar. Taxrij usullaridan foydalanish hanafiy mazhabining o'sishiga sabab bo'lgan. Uning usullariga xos bo'lgan yumshoqlik, ayniqsa urfga katta e'tibor berish, barcha savollarga zamon talabiga muvofiq javob berish imkoniyatini yaratib bergan.

Abu Zahra e'tiroficha, tajrih usulidan hanafiy mazhabi bo'yicha foydalanish, faqihlar o'zlarini bu sohada mazhab chegarasidan chiqmaslikka muvofiq deb bilgan bo'lsalar ham, nihoyat og'ir va mushkul ish edi. Tajrih bo'yicha ular ishlatgan uslub kuchli va kuchsiz dalillarni bir-biridan ajratib olish uchun bir muntazam va yuksak fiqhiy tafakkurning ko'rsatkichi hisoblanadi

Umuman olganda tarjih turli rivoyatlar va turli so'zlar orasida yuz beradi, ulardan har birining o'ziga xos yo'li bor. Fatovoyi Totorxoniyada aytilganidek, "Zohirur-rivoya"da bo'lmagan rivoyatlar, asosiy qoidalariga muvofiq bo'lgandagina e'tiborga olinadi. Hanafiy mazhabidagi tarjih qoidasiga tegishli bo'lgan masalalar mashhur faqih Ibn Obilii asarlarida ko'rsatib o'tilib, ularda tarjih usulini ishlatilishi izohlab berilgan.

Abu Zahra ta'kidlashicha, bunga binoan har bir davrda muxarrijlar bo'lishi zarur, negaki hodisalar cheksiz bo'lib, har bir xodisaning hukmi ma'lum bo'lishi kerak, bu esa hech bo'lmaganda har bir asrda ijgihod qilish salohiyatiga ega bo'lgan muxarrijlar mavjud bo'lishini talab qiladi. «Ijtihad eshigi hatto mazhab doirasida ham yoritgan», degan fikr ushbu zaruratga ziddir. Uning takidlashicha, hanafiy mazhabining rivoji va takomili uchun taxrij va tarjih eshiklarini har doim butunlay ochib qo'yish kerak. Doktor Muhammad Yusuf Muso ko'p asrlardan bunday taqlid islom huquqshunosligining qotib qolishiga sabab bo'lganidan afsuslanib, hozirgi davrda ushbu kamchilikka barham berishga chaqirgan.

Abu Hanifa iqtidorli mudarris, ajoyib pedagog va murabbiy ham bo'lgan. Uning dare halqasida juda ko'p talabalar ishtirok etgan va ilm o'rganishgan. Hindistonlik mashhur olim Mahmud To'ntekiy «Majmaul-musannifin»da yozishicha, uning shogirdlari soni 880 taga yetgan. Abu Hanifa o'z shogirdlari bilan nihoyatda samimiy munosabatda bo'lib, ularga o'z farzandlari singari g'amxo'rlik, mehribonlik ko'rsatgan, har doim ularning ahvolidan, turmush sharoitidan xabar olib turgan va hech qachon o'z yordamini ayamagan, o'rni kelganda uylanishga qurbi yetmaganlarini uylantirgan va barcha kerakli narsalarni ta'minlab bergan. «Al-Xayrotul-hison»da aytilishicha, har kimga ta'lim bersa, uni ehtiyojdan qutqazgan, o'zi va oilasi xarajatini ta'min qilgan, ta'lim olib bo'lgandan keyin unga qarab: «Endi halol va harom ilmi (fiqh ilmi)ni o'zlashtirib, katta boylikka erishding», deb xitob qilar ekan.

Abu Zahra ta'kidlashicha, u dare o'tishda yunon faylasufi Suqrot uslubiga o'xshash metoddan foydalangan. To'g'ridan-to'g'ri talabalarga ma'ruza o'qimasdan, o'rganilishi kerak bo'lgan masalalardan birini o'rta tashlab, unga tegishli bo'lgan hukmlar asoslarini izohlab bergandan keyin, shogirdlar u bilan bahsu munozaraga kirishganlar. agr kim o'z fikrini bildirib, gohi undan tarafeizlik bilan odilona nazar bildirishini so'raganlar va ijtihodiga qarshi turganlar. Ba'zan unga nisbatan ovozlar baland ko'tarilardi. U esa matonat bilan masalani har tomonlama tekshirgach, tortishuvlar xulosasi sifatida yuzaga kelgan fikrni o'rta tashlardi, bu esa bahsu munozalardan erishilgan qat'iy xulosa va qaror bo'lardi. O'shanda barcha talabalar rozilik bilan uning fikri to'g'ri ekanligini e'tirof etganlar.

Abu Muhammad horisiy Abu Sulaymon Jo'zjoniyan quyidagicha rivoyat qilgan: «Abu Hanifa Allohning inoyati bilan fiqhni keng qamrovda o'zlashtirib olgan edi. U suhbatdoshlari bilan

o'tirib, biron masala bo'yicha gapirganda, ular ham ko'p so'zlashar, har bir fan bo'yicha bahslashardilar, ovozlari baland ko'tarilardi, lekin Abu Hanifa jim o'tirib eshitardi. Abu Hanifa mavzuni sharhlashni boshlaganda, ular orasida fiqh va ma'rifat egalari mavjud bo'lsa ham, majlisda hech kim bo'lmagandek, hammalari jim o'tirardi. Abu Hanifa kunning oxirigacha gapirardi, lekin ular shunday sukut qilib o'tirardilar. Suhbat tugagandan keyin, ulardan biri: «Subhonalloh, hammani kim sukutda qoldirdi?!» derdi. «Abu Sulaymon qo'shimcha qilib: «haqiqatdan ham Abu Hanifa eng ajoyib bir odam edi», degan edi.

Hanafiy mazhabi ikkinchi hijriy asrdan sharqu g'arb, shimolu janubga o'z nufuzini o'tkaza boshlagan va birinchi bosqichda Abbosiylar davlati hududida tarqalgan, so'ngra ko'p o'lkalarda barcha xalqlarning ichiga kirib borib, ular tomonidan qabul qilingan va ayrim mamlakatlarda rasmiy mazhab sifatida qabul qilingan, ularning keng sohali barcha hududlarida sud ishlari ushbu mazhab asosida olib borilgan.

Hanafiy mazhabi shimoliy Afrika mamlakatlari (Tunis, Jazoir, Marokash)da tarqalgan. Bu o'lkalarda hanafiylar soni ko'p bo'lmasa ham, bu mazhab olimlari katta izzat va hurmatga ega. Tunis poytaxtida sud ishlari hanafiy va molikiy mazhablari asosida yuritilib, unda hanafiy sud tizimi molikiy sud tizimi bilan birga qo'llaniladi. Hasan Sodiqning ta'kidlashicha, bu yerda fikrimizcha, hanafiy mazhabining dunyoda keng tarqalishiga quyidagi omillar sabab bo'lgan Birinchi omil: ushbu mazhab o'z mohiyati, ta'limoti va qo'llagan uslubi bilan jamiyatlarda yuz berib turadigan huquqiy muammolarni hal etish imkoniyatiga ega bo'lib, har qanday savolga javob topa oladi. Bunday imkoniyat shundan kelib chiqadiki, hanafiy mazhabi biron-bir masala bo'yicha (Qur'on yoki hadislar matni) mavjud bo'lmasa, qiyos va uning eng muhim turi bo'lmish qiyosi xafiy, ya'ni yopiq yoki yashirin

qiyos (istehson)ga tayanib ish olib boradi, shuningdek, urf-odatga katta e'tibor qaratadi; ikkinchi omil: hanafiylik ilmiy asoslarga tayangan bir mazhab sifatida Abbosiylar buyuk imperiyasining mazhabi bo'lib kelgan. Undan keyin G'aznaviylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Razmshohlar, Temuriylar, Boburiylar, shuningdek Usmoniylar buyuk imperiyasida asosiy va davlat mazhabiga aylanishi uning rivoji va tarqalishi uchun katta imkoniyatlarni yuzaga keltirgan. Ushbu davlatlarda, ayniqsa Abbosiylar, G'aznaviylar, Usmoniylar davlatlarida hanafiy mazhabi qoidalari asosida sud tizimi rivojlangan. Alloma Ibn Obidin aytganidek ularning barcha qozilari va shayxul-islomlari hanafiy mazhabi vakillari bo'lganlar. Uchinchi omil: Abu Hanifa shogirdlarining ko'pligi. Shayx Mahmudxon Tunkiy yozgan 60 jildlik «Majma'ul-musannifiyn» kitobida zikr etilishicha uning shogirdlari soni 882 taga yetib borgan. Uning to'rtta buyuk shogirdi (Abu Yusuf, Muhammad ibn hasan, Zufar va Abulhasan)dan tashqari, ularning ko'pchiligi Movarounnahr, Huroson va Eron hududlaridan edilar; to'rtinchi omil: Uning buyuk shogirdlaridan keyin ularning izdoshlari bo'lmish bir guruh faqihlar maydonga kelib, shariat hukmlarini istinbot va istixroj qilish va ularni asrlar davomida yuz bergan hodisalarga tatbiq etish muammolariga jiddiy yondashganlar. Fiqh ilmida ham usul, ham furu' bo'yicha qimmatli asarlar yozib qoldirganlar.

“Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib hayrixox va talablari ko'payib bormayotgani hech kimga sir emas– deb qayd etadi prezidentimiz I.Karimov. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzodni doimo ezgulikka chorlashi hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarini

ajdodlardan-avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o`rni va ahamiyati bilan bog`liq”⁵

1.2. Burxoniddin Marg'inoniyning fiqh ilmi rivojiga qo'shgan xissasi

Abu Hanifa asos solgan mazhab sakkizinchi asr o`rtalarida, uning hayotlik chog`idanoq tarqala boshlab, shu asrning oxirlarida uzoq-yaqin o`lkalar, jumladan, Movarounnahrda yetib kelgan edi.

Muhammad Ibn Hasan Shayboniyning mumtoz shogirdlaridan biri bo`lmish Abu Hafs Axmad Ibn Hafs al-Kabir al-Buxoriy (y.832 y.) birinchi bo`lib, IX asr boshlarida ushbu mazhab ta`limotining haqiqiy tashuvchisi sifatida o`z vataniga qaytib kelgan, Buxoro shahrini hanafiylikning muhim markazlaridan biriga aylantirgan Uning tarbiyasi ostida bir guruh fiqihlar, jumladan, o`z davrida hanafiy mazhabining shayxi va salohiyatli vakili bo`lgan uning o`g`li Abu Hafs Sag`iy Muhammad Ibn Ahmad Ibn Hafs yuksak darajali fiqih martabasiga yetgan.

Samarqandda fiqih ilmi Abdusulaymon Jo`zjoniyni atqili shogirdi, Abumansur Moturidiyni yirik ustoz Abubakr Jo`zjoni rahbarligida tarqatilgan va hanafiy mazhabiga katta e`tibor qaratilgan.

Buxorolik faqihlar o`sha davrdan boshlab hamusulul-fiqh va ham furuul-fiqh bo`yicha muhim va e`tiborga loyiq asarlar yozib kelganlar. Ibn Xaldun «Al-Muqaddima»da ta`kidlashicha, Abu Zayd Dabusi ushbu mavzuda yozgan kitob eng muhim asarlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, keyinroq Sadrush-sharia Ikkinchi Ubaydullo ibn Masud yozgan «Tanqiyh ul-usul» nomli kitob va uning ustidan yozgan «at-Tavziy» nomli sharhi katga e`tibor va ilmiy ahamiyat kasb etib kelgan.

⁵ Karimov.I.A “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch”. T.: 2008. 36 b.

IX asrdan boshlab hanafiy, shofi'iy va hanbaliy mazhablari Markaziy Osiyoda o'z nufuzini o'tkaza boshlagan. Xurosonda hanbaliy mazhabining yirik namoyandasi shayxul-islom Abdullo Ansoriy (XI asr) bo'lgan. Shofi'iy mazhabining atoqli vakili, O'rta Osiyo bo'yicha shofi'iylar imomi toshkentlik Muhammad Ibn Ali Ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy (291-365 h.y.) bo'lgan Ibn Xalliqonning ta'kidlashicha, o'sha davrda Movarounnahr hududida unga teng keladigan olim va faqih bo'lmagan. Zirakaliyning yozishicha, u fiqh, hadis, lug'at va adabiyot bo'yicha o'z davrining atoqli olimi hisoblangan. O'sha davrlarda shofi'iy mazhabi, Xuroson, Turkiston va Eronda katta e'tibor qozongan. Shuningdek, mo'tazila, ismoiliya, ayniqsa ularga mansub bo'lgan botiniylar o'sha davrda keng ko'lamda faoliyat olib borgan

Imom Moturidiyning ilmiy faoliyati va tinimsiz kurashi oqibatida e'tizol mazhabiga zarba berilib, Qarmatiylar va Botiniylar mag'lubiyatga uchrab, Botiniylar Tog'li Badaxshonga (hozirgi Tojikiston va Afg'oniston hududida) chekingan.

Buxoro va Samarkand olimlari kalom ilmidan tashqari ham usuldam furu bo'yicha barhayot ilmiy asarlar yaratgan Nasafiylar kalom ilmi bo'yicha Moturidiy maktabi davomchisi sifatida ushbu maktab ta'limotini tiklab, rivojlantirgan va furu'ul-fiqih bo'yicha ular va Farg'ona faqihlari juda ko'p qimmatli asarlar yozib qoldirgan

Movarounnahrda fiqhning rivojida iroqlik fiqihlar, ayniqsa, Abu Bakr al-Jassys (v.981 y.), shuningdek, Xurssonning muhim ilmiy markazlaridan bo'lmish Jo'zjon, Balx va Taxor olimlari — qozi Shaddod Ibn Dukaym-Balxiy, Abuhomid Bal-xiy, Abul-Muayyad Balxiy, Abu Sulaymon Jo'zjoniy, uning shogirdi Abu Bakr Axmad al-Jo'zjoniy (Abu Mansur Moturidiy-ning ustoz) va yana bir shogirdi Muhammad ibn Salama Abu Ab-dullo Balxiy va boshqalar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir o'tkazib kelganlar.

Islomshunos olim A.Mo‘minov «Movarounnahr musulmonlari: hanafiylar» nomli ilmiy maqolasida ta’kidlashicha, o’sha davrda (IX-X asrlar) «...Movarounnahrda kechayotgan jarayon hali mahalliy ahamiyatga ega bo‘lib, bu mintaqa islom markazlarida Hirosonning bir qismi hisoblanardi. Fiqih guruhleri, Somoniylar (875-999) amaldorlari zo‘ravonliklaridan aholi turli tabaqalarining yagona himoyachisi sifatida chiqqanliklari natijasida ularning ijtimoiy obrusi va ta’sir doirasi kengaya bordi». Maqola muallifi yozishicha, o’sha davrda fikh ilmi turli jihatdan, masalan, yaratilgan asarlarning ozligi nuqtai nazaridan ham shakllanish va kuchga to‘lish davrini boshdan kechirmoqda edi.

Davlat hokimiyati Qoraxoniylarga (999-1212) o‘tgandan keyin Movarounnahrda fiqih ilmining rivoji va takomili uchun ta’sirchan omillar yuzaga kela boshlagan. Ushbu omillardan biri A.Mo‘minov ta’kidlaganidek, shundan iborat ediki, Qoraxoniylar davlati qaror topishi natijasida «Movarounnahrning Huroson bilan aloqalari zaiflashib, oyoqqa turgan mahalliy maktablarning mustaqil rivojlanishiga asos yaratildi. Markaziy shaharlarda avtonom boshqaruvning kuchayishi ulamo guruhleri ta’sir doirasining kengayishiga olib keldi. Bu bilan fiqih normalarini hayotga tatbiq etishga real sharoit yaratildi. Buxoro va Samarkand hakiqiy ilm markazlariga aylantirildi. Bu shaharlarda Nasaf, Marv, Farg‘ona fiqihlari ham faoliyat ko‘rsatdilar».

O‘rta Osiyoda fiqihning rivoji uchun ikkinchi omil Qoraxoniylar hukmdorlarining fikh islom huquqshunosligi va qonunlariga qiziqishi va huquqiy normalarning amaliy hayotga tatbiq etilishi edi. Manbalarda ta’kidlanishicha, Qoraxoniylar hukmdorlari, ayniqsa Ibrohim Mahmud Tamgochxon diyonatli kishi bo‘lib, fiqihlar fatvosini olmaguncha hech bir jinoyatchini jazolamas, molu mulkini musodara qilmas edi.

Uchinchi omil, davlat va aholi himoyasi ostida mahalliy maktablar asta-sekin o'sib, rivojlanib, katta ilmiy madrasalar darajasiga ko'tarilishi bo'lgan. Soni kun sayin oshib borayotgan madrasalarning katta xarajatlari vaqf mulklaridan tushgan daromadlar bilan ta'minlangan. Masalan, Ibrohim Tamgochxon tomonidan yozilgan vaqfnomada belgilanganidek, Samarqand madrasasi mutavallisi (idora qiluvchisi)ning bir yillik maoshi 2000 dirham, fiqih mudarrisi maoshi 3600 dirham, adabiyot fanlari mudarrisi maoshi 1200 dirham, Qur'oni Karim mudarrisi maoshi 1200 dirham va toliblar maoshi 360 dirham bo'lgan O'sha davrning narxnavosiga ko'ra, bir mudarrisning bir oylik maoshi bilan 150-200 dona yopilgan non, 2-3 ta qo'y sotib olish mumkin bo'lgan. (Dirham: zarb urilgan va muomalada bo'lgan kumush tanga).

Doktor Yusuf Ziyo Kavakji chiqargan xulosalarga ko'ra, mazkur davrda 300 dan ortiq fiqih mavjud bo'lib, 350 dan ko'proq fiqhiy (huquqiy) asarlar, 20 ta fatovo (fatvolar majmualari) yozilib, ulardan 98 foizi hanafiy mazhabiga tegishli bo'lgan ekan.

Afg'onistonlik mashhur muarrix Mir G'ulom Muhammad G'ubor «Afg'oniston tarix o'zanida» nomli kitobida bergan ma'lumotlarga ko'ra, o'sha davrda fiqihlar faqat davlat ishlariga qatnashib qolmasdan, balki Qozichilik vazifasini ham bajargan va muhim ishlarda ulardan maslahat olingan, sud ishlari butunlay ularga topshirilgan Ular shahzodalar tarbiyasi bilan ham shug'ullanganlar.

G'uborning fikri to'g'riligini tasdiqlab aytish mumkinki, Qoraxoniylar davridan tortib temuriylar davrigacha sud vazifalari mashhur fiqihlarga topshirilgan.

Undan tashqari Burhonuddin Marg'inoniy avlodlari, shayxul-islomlik vazifasini ham hatto vorislik shaklda bajarib kelganlar. Ular ba'zan siyosiy ixtiloflarni hal etishgan, Mirzo Ulug'bek va Mirzo Boburning homiylari sifatida sadoqat bilan xizmat qilgan.

Aytib o‘tilgan omillar, ayniqsa, davlat arboblari tomonidan ilm ahliga ko‘rsatilgan yuksak ehtirom, targ‘ibot va tashviqot, O‘rta Osiyoda fiqihlar sonining ko‘payishi va hanafiy mazhabining yoyilishiga sabab bo‘lgan. Mo‘g‘ullar davridan keyin, Mo‘minov ta’kidlaganidek, Amir Temur (1370-1405) davrida islomga davlat dini maqomining qaytarilishi yangi ulamolar tabaqalarining shakllanishiga olib kelgan.

Shunday qilib, hanafiy mazhabi O‘rta Osiyo va Movarounnahr hududida keng ko‘lamda tarqalgan bo‘lib, ularning juda ko‘p yirik va salohiyatli vakillari va imomlari, ham e’tiqod sohasida, ham huquq sohalarida ushbu muhitda kamolot darajasiga yetishgan. O‘rta Osiyoning buyuk fiqhilaridan sakkiztasi «al-Mabsug» nomi bilan fiqh ilmi sohasida ilmiy asarlar yozgan. Ulardan faxrul-islom al-Bazdaviy Mabsuti 11 jildlik, shayxul-islom Muhammad ibn Xusayn al-Buxoriy al-hanafiy Mabsuti» 15 jildlik, Shamsul-aimma as-Saraxsiy «Mabsuti» 15 jild asar yozgan.”Buyuk mutafakkir va ilomalarimizni islom madaniyatini rivojlantirishga qo‘shgan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avvalo haqli ravishda musulmon olamida “Muhaddislar sultoni” deya shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz”⁶ – deb ta’kidlaydi respublika prezidenti I.Karimov. Islom dinining musulmon olamidagi o‘rniga baho berar ekan.

Burhoniddin Marg‘inoniy – fiqh ilmining buyuk vakili va uning «Hidoya» asari.

Imom Burhonuddin Abul-hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg‘oniy al-Marg‘inoniy 1123 yilda hozirgi Marg‘ilon yaqinida, Rishton tumanida tug‘ilgan, 1197 yilda Samarqandda olamdan o‘tgan

⁶ Karimov.I.A “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. T.: 2008. 38-bet.

Margʻinoniy oʻz oilasi tarbiyasida oʻsib, eng mashhur va iqtidorli olimlardan dars olib, yuksak isteʼdodi va izchil faoliyati tufayli hanafiy mazhabi boʻyicha buyuk faqih va mujtahid darajasiga koʻtarildi, shayxul-islom laqabiga sazovor boʻldi.

Burhonuddin al-Margʻinoniy yoshligidanoq tinimsiz ilm oʻrgandi va hanafiy mazhabi boʻyicha oʻz davrining buyuk fiqih (huquqshunosi) darajasiga erishdi. Uning fiqih ilmi boʻyicha bunday yuksak darajaga koʻtarilishi uchun quyidagi omillar sabab boʻldi:

Birinchidan, u oliy isteʼdod, oʻtkir tafakkur egasi va ilmu fan shaydosi edi. Ilmga qiziqish uni uzoq safarlarga chorlab, oʻsha davrning asosiy fanlarini oʻzlashtirishi uchun imkon yaratib berdi. Avvalambor, fiqih ilmini oʻz otasidan, undan keyin imom Bahouddin Ali ibn Muhammad ibn Ismoil al-Asbijobiydan (vafoti 535 y.) oʻrgandi. (Asbijob hozirgi Sayram). Uning mashhur ustozlari Abdulaziz Margʻinoniy, «Qozixon fatovosi»ning muallifi Faxruddin Abulmafoxir Hasan Ibn Mansur Oʻzgandiy (1196 y.), «Al-aqoidun-nasafiya» kitobi va fiqih ilmi boʻyicha yuzga yaqin asarlar muallifi Najmudain Abu Hafs Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy (1143 y.), As-Sadrush-shahid Hisomuddin Umar ibn Abdulaziz ibn Umar ibn Moza (1140 y.) va as-Saraxsiyning shogirdi boʻlmish Abu Amr Usmon ibn Ali al-Baykandiy edi. Margʻinoniy Abu Iso at-Termiziyning «"Al-Jomeʼ» asaridagi hadislarni al-Qurashiyda zikr etilgan isnodlar bilan (isnod hadislarining birovga nisbat berilishi) Abu Muhammad Sayd ibn Asaddan va Hasan Ibn Ali al-Margʻinoniydan oʻqib eshitgan. Turli manbalarga koʻra, u oʻz ustozlaridan ancha yuqori darajalarga koʻtarilgan edi. Ikkinchidan, u yashagan davr Sharq uygʻonish davrining birinchi bosqichi boʻlmish IX-XII asrlarga, yaʼni Oʻrta Osiyoda jamiyat taraqqiyoti uchun fiqih (huquqshunoslik) ilmiga katta zarurat tugʻilgan bir davrga toʻgʻri keldi. Fiqh ilmi boʻyicha u yozgan

asarlar, ayniqsa, «hidoya» kitobi o'sha davr huquqiy muammolarini hal etishga qaratilgan edi.

Uchinchidan, Marg'inoniyning Imomi A'zam Abu Hanifa Numon Ibn Sobit asos solgan hanafiy mazhabi, ya'ni huquqiy maktabiga mansubligi ham uning o'sib, kamolot cho'qqisiga ko'tarilishi uchun katta omil bo'ldi. Negaki, Abu hanifa shariatning uchta asosiy manbai (Qur'on, Sunna, ijmo)dan keyin, to'rtinchi manba bo'lmish ratsional (aqliy) manba, ya'ni qiyosga boshqa mazhablarga nisbatan ko'proq e'tibor qaratganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, xalq ichida yoyilib, ularning hayotiga singib ketgan urf-odatlar hanafiy mazhabida huquqiy muammolarni hal qilishda qo'shimcha manba sifatida kengroq ko'lamda qo'llaniladi.

Mazkur omillar, ayniqsa, hanafiy mazhabining ray (shaxsiy fikr) va qiyosga tayangani Burhonuddin Marg'inoniyga o'z malakasini oshirib, islom huquqi falsafasining tub mohiyatini anglab olish va bu cheksiz sohada erkinlik bilan fikr yuritish uchun munosib sharoit yaratib berdi.

Kotib Chalabiy, Abulhasanot Muhammad Abdulhay Laknaviy, "hidoya"ning ayrim sharhlovchilari "Islom ensiklopediyasi" ma'lumotlariga ko'ra, quyidagi asarlar Burhonuddin Marg'inoniy qalamiga mansub bo'lib, tekshirishlar orqali ularning qo'lyozmalari borligi aniqlangan:

Marg'inoniy fiqhiy nuqtai nazarda huquqiy masalalarni izohlash jarayonida ular mashru (ravo, qonuniy) yokinomashru (noravo, g'ayriqonuniy) ekanligini aqliy dalillardan keyin, aqliy dalillar bilan yoritib o'tib, ma'qullashi isbotlab berdi. Ushbu nuqtai nazardan «hidoya»ni islom huquqi falsafasi va keyingi davrlarda ham rivojlangan «huquq falsafasi» fanining manbalaridan biri deb qabul qilsak, to'g'ri xulosa chiqargan bo'lamiz.

«Hidoya»ning birinchi jildi huququlloh ya'ni tahorat va amaliy ibodatlar (namoz, ruza, zakat va haj)ga, ikkinchi jildi oila huquqi, qul saqlash muammolari, hudud jazolari (Alloh tomonidan belgilangan jazolar), xalqaro huquq meyorlari, shirkatchilik, islom huquqiga xos bo'lgan vaqf huquqi kabi masalalarga, uchinchi jildi muomala turlari (fuqarolik huquqi) sud, sud jarayoni, to'rtinchi jildi esa, ekin ekish va yer muammolari, jinoyat turlari, guvohlik va boshqa ko'plab mavzularga bag'ishlangan.

«Hidoya» Misr Arab Respublikasidagi eng qadimiy dorulfunun "Al-Azhar", Afg'oniston Islom dorulfununi, Hindiston Aligarh universitegi, «Devband» dorul-ulumi, boshqa islom mamlakatlari oliy o'quv yurtlarining ta'limiy hisoblari (o'quv dasturlari)ga kiritilgan. Hamon qonun tuzish tizimini rivojlantirish uchun asosiy manbalardan biri sifatida qo'llanib kelinmoqda. Afg'oniston va Hind yarim orolida «Kanz» va «Al-Quduriy» kitoblaridan keyin, «al-hidoya»ni yetuk ustozdan o'qib tamomlamagan tolib, haqiqiy fiqih olimi hisoblanmaydi. Hidoya fors, ingliz va rus tillariga o'girilgan va nashr qilingan.

«Hidoya» arab tilidan o'zbek tiliga taniqli olim Salohiddin Muhiddinov rahbarligida bir guruh yosh olimlar ishtirokida tarjima qilinib, uning birinchi jildi 2000 yil «Adolat» nashriyotida bosmadan chiqarildi. Kitobning boshqa jildlari ham nashrga tayyorlanmoqda.

Burxoniddin Marg'inoniy va Buxorolik fiqihlar.

Buxorolik o'nlab atoqli fiqihlar orasida, Sadrush-sharialar oilasi o'zlariga xos mavqega ega bo'lib, Islom huquqshunosligida mumtoz o'rin tutgan hanafiy mazhabining yirik namoyandalari sifatida xizmat qildilar va Marg'inoniyning shoh asari «Hidoya» ga katta diqqat va e'tibor qaratdilar. Zamonasining mashhur huquqshunos olimi bo'lgan birinchi Sadrush-sharia Ahmad ibn Jamoluddin Ubaydullo al-Mahbubiy al-Buxoriy bo'lib, u XIII -asrda yashab ijod etgan va muhim

fiqhiy asarlar, jumladan, «Hidoya» ustidan yozilgan sharhlardan birining muallifi sifatida tanilgan. Uning o'g'li To jush-sharia taxallusi bilan shuhrat qozongan Maxmud ibn Sardush-sharia ham o'z otasi singari, ajoyib huquqshunos olim bo'lib, hanafiylar fiqih sohasida o'zidan unutilmas ilmiy asarlar qoldirdi. Tojush-sharia, o'z nevarasi (Sadrush sharia As-Soniy, ya'ni Ikkinchi yoki Kichik Sadrush-sharia)ni islom huquqi bo'yicha yaxshi tarbiyalab, fiqhiy masalalarni uning miyasiga singdirish maqsadida Burhonuddin Marg'inoniyning shoh asari bo'lmish «Hidoya» ning eng asosiy masalalarini qisqartirib, bir kitobda ijodiy shaklda jamladi va uni «Viqoyatur-rivoya fi masoilil-hidoya» («hidoya masalalarida rivoyatlarni saqlash») deb atadi.

Hanafiy mazhabi rivojida O'rta Osiyolik faqihlarning roli va hissasi.

O'rta Osiyo olimlari to'qqizinchi asrdan boshlab, fiqih ilmining turli sohalariga chuqur kirib borib, juda ko'p asarlar yozishga muvaffaq bo'ldilar. Aytib o'tganimizdek Turk tadqiqotchi olimi Doktor Ziyo Yusuf Kovakji o'z ilmiy izlanishlaridan chiqargan xulosasiga ko'ra XI-XII asrlar (Qoraxoniylar davri)da Movarounnahr, ayniqsa O'zbekiston hududida 300 ta atoqli fiqh ilmi olimlari mavjud bo'lib, 350 dan ko'proq fiqhiy asar yozgan ekanlar. Ushbu fiqhiy asarlarning 98% hanafiy mazhabiga tegishli bo'lgan ekan. Tadqiqotchi fikriga ko'ra, hanafiy mazhabi sohasida bu davrda shunchalik ko'p asarlar yozildiki, unga binoan bu davr olimlarini Islom huquqini quruvchilari desak mubolag'a bo'lmaydi, hanafiy mazhabi shu qadar rivojlanib tarqaldiki, uni Movarounnahrning mazhabi yoki fiqh desa bo'ladi.²

O'rta Osiyolik fiqihlarni quyidagi oltita: Buxoro, Marv, Samarkand, Nasaf, Farg'ona, Xorazm guruhlariga bo'lib o'rganishi mumkin.

Islom dini VII asr avvallaridan keng ko‘lamda tarqala boshlab IX-XII asrlarda Sharq o‘lkalarida umumiy din tusini oldi va uning ta’limoti ta’siri ostida turli xalqlar va elatlarga tegishli turli madaniyatlar bir-biri bilan qo‘shilib «sinkritik», ya’ni yangi bir birlashgan sivilizatsiya (tamaddun)ning yuzaga kelishi uchun zamin yaratib berdi. Ushbu sivilizatsiya doirasida shariat ilmlaridan tashqari turli ilmu fanlar gurkirab rivojlandi.

“Ayniqsa ko‘p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlashda –deb haqli ta’kidlaydi prezident Islom Karimov, - muqaddas dinimiz qudratli omil bo‘lib kelayotganini alohida ta’kidlash joiz”⁷

Islom ta’limoti Movarounnahr arablar tomonidan tasarruf qilinganidan keyin asta-sekin kirib kelayotgan edi. Ammo islom huquqi shakllangandan keyin hanafiy mazhabi ta’limoti bu o‘lkada birinchi marta Muhammad Ibn Hasan Shayboniyning atoqli shogirdlaridan biri Abu hafs Kabir Buxoriy (768-832) orqali tarqatildi. U bir guruh buyuk faqihlar, jumladan o‘z o‘g‘li Abu Hafs Sag‘irni tarbiyalab, Buxoro shahrini fiqh ilmi markaziga aylantirdi.

O‘zbekiston hududida fiqh ilmi va hanafiy mazhabi tarqalgan ikkinchi markaz Samarqand shahri edi. Mashhur faqih va muhaddis Abu Sulaymon Jo‘zjoniyning shogirdi, imom Abu Mansur Moturidiyning birinchi ustози Abu Bakr Jo‘zjoniyy hanafiy mazhabining atoqli vakili sifatida ushbu ta’limotni tarqatishga katta ulush qo‘shdi.

IX asrdan boshlab shofe’iy va hanbaliy mazhablari ham Xuroson va Movarounnahrğa o‘z nufuzini o‘tkaza boshlagan. Shofe’iy mazhabi Xuroson va Movarounnahrda katta e’tibor qozonib Muhammad Ibn Ali

⁷ Karimov.I.A “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T.: 36 b 2008.

al-Qaffol ash-Shoshiy (291-365 h.y.) va uning o'g'li Shayx Qosim Ibn Muhammad kabi buyuk faqihlar va Xoja Nizomulmulk kabi davlat arboblari himoyasida O'rta Osiyoda tarqalgan bo'lsa ham zamon o'tishi bilan raqobat maydonida o'z o'rnini hanafiy mazhabiga bo'shatib berdi. Danbaliylikning yirik vakili Xurosonda atoqli orif shayxulislom Abu Abdullo Ansoriy edi. Bu mazhab ham oz muddatda xalq ichida o'z nufuzini qo'ldan berib, o'rnini hanafiy mazhabiga topshirdi. Shunday qilib hanafiylik butun Movarounnahr, Xuroson va Eronni egallab oldi.

1.3. Islomiy huquqiy qadriyatlar va ularning mustaqillik jarayonidagi o'rni

Mustaqil O'zbekistonimizda qadriyatlarni tiklanishi o'z taraqqiyotimizning ildizlarini bilish borasidaga ishlarni amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Qadimiy Turon o'lkasi, Turkiston hududini, arablar "Movarounnahr", ya'ni ikki daryo orasidagi yurt deb atashgan. O'zbekistan mazkur hududning asosiy qismini tashkil etib, fan va madaniyat o'chog'i bo'lib kelgan. Hunarmandchilik, dehqonchilik o'lkasi, Buyuk Ipak yo'li o'tgan, Iskandar Zulqarnayn "Ming shaharli mamlakat" deb atagan So'g'diyona, albatta, huquqiy meyorlarsiz yashashi mumkin emasdi.

Haqiqiy huquqiy taraqqiyot IX - X asrlarda musulmon Sharqi Uyg'onishi davrida yorqin ko'rindi. U islom qobig'ida ko'plab madaniy va huquqiy, yozma va og'zaki an'analar tasirida qaror topdi.

VIII asr o'rtalarida musulmonlar olamida ziddiyatlar kuchaydi. O'shanda barchani teng qoniqtiradigan qonuniy meyorlar yaratish zarurati tug'ildi. Qur'oni karimga asoslangan yagona huquqiy zilzilaning qaror topishi bir necha yuz yilgacha davom etdi.

Islom huquqi - nufuzli, amalga oshirish zaruriy bo'lgan yurish turish, odob-axloq, diniy, huquqiy qoidalar majmuidir. Islom huquqi

falsafani o'zida mujassam etgan, qonun etikasi fiqh ilmida kashf etilgan. Fiqh ilmi ham buyuk allomalar va huquqiy tafakkur egalari mehnatlari bilan rivojlangan.

Buxoroda Somoniylar sulolasi va Xorazmshohlar tomonidan huquqqa oid adabiyotlar to'plangan ulkan kutubxonalar tuzilgan. Qoraxoniylar tomonidan madrasalarni rivojlantirish, faqihlarni himoya qilib ularni moddiy tomondan ta'minlab rag'barlantirish, qonunga e'tibor qaratish katta ahamiyat kasb etgan edi.

Islom huquqshunoslari fiqhlari, chuqur bilim va ma'naviy fazilatlarga ega bo'lishlari shart bo'lgan. Qozilar ham bey tajribaga ega vakengashga axloq borasida hammaga ibrat bo'lganlar. Shu sababli ular turli-tuman muammolarga odil yechim topa olganlar, bir-biriga zid ta'limotli mazhablar bahslarini hal etganlar.

Islomda sunniylarning ana shunday to'rt maktabi tan olingan. Ushbu maktablar ularning asoschilari Abu hanifa (699 - 767 yillar), Malik Ibn Anas (713 - 795 yillar), Ash-Shofe'iy (767 -819 yillar), Ibn Danbal (780 - 855 yillar) nomlari bilan atalgan.⁸ Xanafiylar mazhabi nufuzli huquqshunoslar fikrlari va turmush qoidalariga asoslanganligi sababli Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Rusiya, Turkiya, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Indoneziya va boshqa yurtlar huquqiy qoidalarining asosi bo'lgan Xanafiy mazhabi ta'limotiga asoslangan muassasalar Buxorodagi Mir Arab madrasasi va Toshkentdagi Imom al-Buxoriy nomidagi Islom Institutida, Toshkent Islom Universitetida islom huquqshunosligining hozirgi markazlari hisoblanadi.

Islom huquqida, muvofiq hukm chiqarish uchun huquqiy ustuvorliklar tizimi mavjuddir. Birinchidan, bu Qur'oni Karim, ikkinchidan, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning so'zlari va

⁸

Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi 1 - kitob. T.: Yozuvchi, 1996.-272 b.

faoliyati haqidagi kitoblar, uchinchi, esa musulmon jamoasi va salohiyatli olimlarning shariatning eng muhim masalalari yuzasidan yakdil fikrlashi, ya'ni siymodir, to'rtinchidan, qiyoslash, mantiqiy xulosa chiqarishdir. Oxirgi holda qozining mavqei, uning mahalliy urf-odatlariga asoslangan shaxsiy nuqtai nazari katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Hadislarning nisbatan to'liq holdagisi Imom Muxammad Ibn Ismoil al-Buxoriyning "Al Jome' as-Sahih" to'plami sanaladi. Manbalarning xabar berishicha, al-Buxoriy yuzlab shayxlardan hadislar eshitgan, 600.000 hadisni tekshirgan, 200.000 tasini esa o'zi suhbatdoshlari va ustozlaridan yozib olgan. Shu tariqa Imom al-Buxoriy hazratning cheksiz jasoratlari tufayli 97 kitobdan 3450 sarlavhali 7275 hadis tanlab olingan. Mukammal deb tan olingan hadislar kitobi orasida Imom at-Termiziyning "Al Jomi'" kitobi ham mavjud.

XIX asrning o'rtalarida Movarounnahrda qozi va muftiylar o'rtasida islom huquqchiligiga oid 20 ga yaqin fiqhiy asar bor bo'lgan. Ularning mualliflari orasida vatandoshlarimizni, Bag'dod, Misr, Suriya, Eroq Boburiylar Hindistoni olimlarini uchratamiz. Bu Islomning sunniylik oqimiga mansub davlat va xalqlar uchun yagona huquqiy hudud mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Ayni paytda bu ulkan hududdagi yuksak huquqiy madaniyat, huquqiy ongning birlashtiruvchilik imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Islom huquqshunosligiga oid eng e'tiborli asarlar orasida yurtdoshimiz Shayxul islom Burhoniddin Ali bin Abu Bakr Marg'inoniyning "Hidoya"si alohida ajralib turadi. "Hidoya" - to'g'ri yo'l ko'rsatish (bu o'rinda huquqiy yo'l) degan ma'noni anglatadi. Burhoniddin Marg'inoniyning huquqshunos alloma sifatidagi martabasi juda ulug' sanalgan. Shu sababli "Hidoya" asari islom olamida nihoyatda keng tarqalgan.

"Hidoya" muallifining ta'kidlashicha, u avval shogirdlari uchun bitgan "Bidoyatul-Mubtadi" asarining sharhi hisoblanadi. Umuman shariat yuzasidan bitiladigan asarlar shu tariqa yuzaga kelardi. Dastlab ular ma'ruzalar ko'chirmasi bo'lardi. "Hidoya"ning mustaqil O'zbekistonimizda to'rt jild holida chop etila boshlangani quvonarli holdir. Bu huquqshunos olimlarimizga zamonaviy qonunchilikni shariat qoidalari bilan bog'lash yo'llarini topishga ko'maklashishi shubhasiz.

Sohibqiron Amir Temur tuzuklari ham fiqh ilmiga davlat nuqtai nazaridan yondashish timsolidir. Tuzuklarda sohibqiron davlat boshqaruvida shariatdan foydalanishga katta e'tibor qaratgan.

Amir Temur huquqiy tarbiya xususida g'amxo'rlik ko'rsatdi. Buning uchun har bir mamlakatda huquq va din bilimdonlari (shayxul-islomlar) tayinlab qo'yildi. Sohibqironning huquq tizimi faqatgina diniy meyorlardan iborat bo'lib qolmagan u urf qonunlariga katta e'tibor qaratib, davlatni fuqaroviy boshqarish uchun qonunlar chiqardi.

Yuksak huquqiy madaniyat, davlat, xalq, inson hayotida qonunchilikning ahamiyati adabiy asarlarda ham o'z ifodasini topgan Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy "Xamsa"da xalqqa zulm qilish, ochko'zlik va boylik ketidan quvishni qoralashga maxsus boblar bag'ishlagan

Turkiston hududida oxirgi davrlarda, ayniqsa, XX asr avvallarida ham shariatga asoslanib, juda muhim huquqiy asarlar yaratilgan. Ulardan biri Toshkentlik katta olim Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja tomonidan "Muxtasarul-viqoya" kitobiga yozilgan katta ikki jildlik sharhdir. Ushbu muhim asarni muallif 50 dan ortiq klassik fiqh kitoblari va fatovalarga asoslanib o'zbek tilida yozib, uni ikki marta arab alifbosida nashr qildirgan. Kitobning hajmi 1000 sahifadan

oshadi. Yaqinda uning birinchi jildi hozirgi imlomizda "Adolat" nashriyoti tomonidan nashr etildi.

1917 yildan boshlab huquqda sho'ro usulida ovrupochalashtirish yuz berdi. Sho'ro hokimiyatining taqdiri hal bo'layotgan 1918 yildan 1928 yilgacha mintaqada fuqaro ishlarida ham sovet, ham qozi sudi amal qildi. Bu ko'p jihatdan yangi hukumatning mustahkamlanishiga yordam berdi. O'ttizinchi yillarning boshida ham oilaviy mojarolarni hal etishda ko'pgina musulmonlar norasmiy bo'lsa ham qozilarga murojaat qilganlar. Shu sababli shariatga qarshi ham mafkuraviy, ham siyosiy sabablarga ko'ra hayot-mamot urushi e'lon qilingandi.

Vaqt daryosini orqaga burish mumkin emas. Zamonaviy fuqarolik jamiyatini shariat hukmronlik qilgan davrga qaytarishning iloji yo'q. Bunday holat Misr va Turkiya kabi taraqqiy etgan islom mamlakatlarida ham yo'q. Lekin mustaqil O'zbekistonda huquqiy jamiyat qurishda ba'zi ijtimoiy munosabatlarni shariat kabi huquqiy meroslarimiz orqali boshqarib turish tajribasini hisobga olish foydadan holi bo'lmasdi. Misol uchun oila manfaatlari ustuvorligi, ijtimoiy himoyalash choralarini keltirish mumkin

Islom huquqshunosligi ananalarida qonunshunoslarning o'ziga xos uyushmasi - ulamolar kengashi bor edi. Ular turli bahslar o'tkazar, tahlil va ta'lil qilib, qozilikka nomzodlarni aniqlashar edi. Ya'ni huquqshunoslarning o'ziga xos ijodiy uyushmasi bo'lgandi.⁹

Bundan 150 yil muqaddam xorijliklarga (bu haqda ko'pgina manbalar guvohlik beradi) tushunarli bo'lgan narsalar bizga ham aniq-ravshan bo'lmog'i kerak. Ma'naviyat, yozuv madaniyatimizning bebaho yodgorligi sifatida shariat yo'li bilan birlashtirilgan asarlar eng avvalo huquqiy ta'lim va fan, madaniyatshunoslik, ijtimoiy tarix, falsafa va estetika nuqtai nazaridan o'rganilishi kerak. Shuning uchun

⁹ Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi 1 - kitob. T.: Yozuvchi, 1996.-279 b.

Islom mintaqa madaniyatining eng yuksak qadriyati tavhid e'tiqodini butun qudrati, mazmuni, amaliy mohiyati va ko'lami bilan anglab yetish mintaqaning ilg'or ziyo egalari uchun necha asrlik yumush bo'ldi. Bu yo'lda mintaqa ma'naviyati kamolot yo'lining bir qator pillapoyalarini bosib o'tdi. Ulardan dastlabki pog'onasini **Sunna bosqichi** deb atash mumkin.

Payg'ambarimiz hayot vaqtlarida «mening so'zlarimni yozmang, faqat Alloh oyatlarini yozib olinglar», deb buyurgan edilar. Shunday qilindi ham. Albatta, kimlardir o'z tashabbusi bilan u hazratning aytgan gaplari va qilgan ishlari haqida muayyan ma'lumotlarni qayd etib borgan bo'lishi mumkin. Ammo Allohning kitobi but bo'lmay, yagona o'zgarmas matn holiga keltirilmay turib, unga boshqa so'zlar aralashib ketish xavfiga yo'l qo'yib bo'lmas edi. Oldingi ilohiy kitoblar tajribasi ham shuni taqozo etardi. 651 yilda, xalifa Usmon davrida ushbu yumush mukammal bajarildi. Hazrati Abu Bakr paytida Suhuf (alohida sahifalar) shaklida jamlangan Qur'oni karim matni bu paytga kelib Mushaf (alohida muqovalangan qo'lyozma kitob) shakliga keltirilib, undan bir necha nusxa ko'chirib, ko'paytirildi.

Payg'ambarimiz Muhammad(sav)ga vahiy kelaboshlagan vaqtdan to ul janobning vafotlarigacha o'tgan 23 yil "saodat asri" deb ulug'lanadi. Sababi o'sha davrda Muhammad(sav)ning da'vatlariga ergashib, islom dinini qabul qilgan sahobalar diniy masalalarda o'zlarida qanday bir savol paydo bo'lsa, Rasululloh(sav)dan so'rardilar, ular javob bera olmay qolgan o'rinlarda Allohdan vahiy nozil bo'lardi. Muhammad(sav)ning vafotlaridan keyin xulafoyi roshidin davrlarida ham, ayniqsa, hazrati Abu Bakr(r.a.) va hazrati Umar(r.a.)lar o'z aql-farosatlari va sahobalik davridagi tajribalari asosida ummatlar oldida paydo bo'lgan muammolarni hal qilishga urinib keldilar. Ammo Rasululloh(sav)ning sahobalari birin-ketin olamdan o'tib, turli muammolar borgan sari ko'paya boshlagach, endi

faqat Qur'oni karim matniga tayanib mavjud voqelikdagi ko'p masalalarni asl islomiy e'tiqodga muvofiq qanday hal qilish kerakligini aniqlash qiyinlashib bordi. Shunday qilib, ilohiy kitob oyatlarini sharhlab, ko'plab hayotiy savollarga aniq javob bera oluvchi yana bir mo'tabar manbaga ehtiyoj tug'ildi.

Ana shunday ishonchli manba faqat Hadisi shariflar bo'lishi mumkin edi. VII asr ikkinchi yarmidan boshlab, Abu Xurayra (vafoti 676 yil), Anas ibn Molik (vafoti 710 yil), Abdulloh ibn Abbos (619-686), Abdulloh ibn Umar, Jobir ibn Abdulloh kabi ilk roviylardan Rasululloh so'zlari va amallari xususida minglab hadislar yozib olindi. Abu Said al-Xudriy, Ibn Shihob az-Zuhriy singari ilk muhaddislar yetishib chiqdi. VIII asr boshlarida Ummaviy xalifalaridan Umar ibn Abdulaziz (717-720) noiblariga Muhammad (S.A..V.) hadislarini jamlash haqida farmon berdi. Abdulmalik ibn Abdulaziz Jurayx (vafoti 766), Ar-Rabi' ibn Subayx kabi allomalar hadislar jamlab yozishga boshladilar. Natijada hadis ilmi rivoj olib, Imom Malik ibn Anas (713-795)ning «al-Muvatto», Imom Shofe'iy (767-820) va imom Ahmad ibn Xanbal (780-855)larning «Musnad» deb nom olgan yirik hadis to'plamlari yaratildi. O'lkamizda quyida nomlari zikr etilgan zotlar birinchi bo'lib hadis to'plamlarini tuzdilar: Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy, Ishoq ibn Raxovayx al-Marvaziy, Imom al-Xaysam ibn Kulayb ash-Shoshiy va boshqalar.

Sunna bosqichi - milliy ma'naviyatimizning Islom mintaqa madaniyati doirasidagi takomilining birinchi bosqichi va yetakchi tamoyillaridan birinchisi, Tavhid Haqiqatini butun ko'lami bilan anglab yetishning dastlabki pog'onasi bo'lib, VIII-IX asrlarni o'z ichiga olgan bu bosqichda Payg'ambarimiz sunnatlarining asosi bo'lmish hadis ilmi mukammal darajaga ko'tarildi va eng mo'tabar olti hadis to'plami tuzildi. Bu bosqichning yetakchi tamoyilini **Ibrat ma'rifati** deb hisoblash mumkin. Sunna ibrat orqali e'tiqod bo'lib, Borliqning yagona Oliy Haqiqati mavjudligini tan olish va unga chin dildan e'tiqod qilishni taqozo etgan.

Keyingi IX asr hadis ilmining «oltin asri» deb shuhrat qozongan. Chunki bu asrda hadislarini to'plash davri o'tib, endi ularni

manbashunoslik va matnshunoslik ilmi qoidalariga muvofiq tahlil va tadqiq etish, ma'lum mazmun asosida tartib berishga kirishildi. Hadisshunoslik atalmish jiddiy ilm yo'nalishi mukammal shakllandi. Hadis ta'lif etish sohasida «Musnad», «Sahih» va «Sunan» deb nomlangan yo'nalishlar vujudga keldi. Bu davrda keyingi asrlar uchun namuna bo'lgulik ishonchli hadis to'plamlari yaratildi. Butun islom olamida eng nufuzli manba sifatida dong taratgan «Kutubi sitta» («Olti kitob») mualliflari shu davrda yashab ijod etdilar. Ular: Abu Abdulloh Ismoil al-Buxoriy (810-870), Imom Muslim ibn al-Xajjoj (819-874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-874), Abu Dovud Sulaymon (817-888), Ahmad an-Naso'iy (830-935), Abu Iso Muhammad ibn Yazid ibn Mojja (824-886) kabi muhaddislaridir. Olti buyuk muhaddisning avvalgisi vatandoshimiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn al-Mug'ira al-Buxoriy (810-870) edilar. Imom Buxoriyning «al-Jome-as-Sahih» kitoblari bugungi kunda o'zbek tiliga tarjima qilinib, 4 jildda e'lon qilindi. Imom al-Buxoriy o'zlarini to'plagan 600 ming hadisdan 7275 ta eng ishonarli «sahih»larini mazmuniga ko'ra tasniflab, butkul yangicha tartibdagi hadislar to'plamini yaratishga muyassar bo'ldilar. Ul muhtaram zotning asarlari keyingi muhaddislar uchun barcha jihatdan o'rnak va namuna bo'ldi. Imom Buxoriy yaratgan «Al-adab ul-mufrad» («Adab durdonalari»), «Kitobi af'ol il-ibod» («Alloh bandalarining xulqlari») kabi boshqa qator asarlar ham mintaqa xalqlarini islom axloqi ruhida tarbiya qilishda alohida ahamiyatga ega.

Sunna bosqichining mohiyati va uning milliy ma'naviyatimiz takomilida tutgan o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, avvalo, bu bosqichni mintaqada manbashunoslik va matnshunoslik fanining yuksak rivoji sifatida baholash lozim bo'ladi, chunki Rasululloh hadislarini Qur'oni karim oyatlaridan keyin mo'tabarlikda ikkinchi o'rinda turuvchi manba bo'lib, uning ham matni, ham isnodi (ya'ni

ushbu hadis roviylari silsilasining naqadar ishonchli va e'tiborli ekanligi) nihoyatda nozik va jiddiy munosabat talab qiluvchi mavzu edi. Bu masalalarda arzimagandek tuyuluvchi yanglishish qandaydir tor ilmiy munozaraga emas, balki har bir musulmonning e'tiqod amalida jiddiy gumrohlikka olib kelish xavfi bo'lgani uchun ham bu soha o'ta zukkolik va daqiqlikni taqozo etar, muhaddisga nihoyatda qat'iy qoidalarga rioya etishni buyurar edi. Ushbu og'ir shartlarga ko'nikma hosil qilish islom ilmlarining keyingi rivoji va kamolotiga jiddiy zamin yaratdi. Ilm naqadar jiddiy mehnat ekanligi ushbu bosqichda butun zalvori bilan his etildi. Afsuski, sovet davrining yagona hukmron mafkuraga so'zsiz bo'ysunish sharoitida, ayniqsa, ijtimoiy fanlar sohasida matn va manbaga jiddiy munosabat, jiddiy ilmning ushbu tagzamini ancha-muncha e'tibordan chetda qoldi va zamonasozlik ruhidagi oldi-qochdi shiorbozlik ko'p o'rinda haqiqiy ilm o'rnini egallab ola boshladi. Bugun biz bu sohada ham, yanada aniqrog'i, birinchi navbatda ushbu sohada, milliy ma'naviyatimiz erishgan yutuqlarni qayta tiklashimiz, matn va manbaga yondashuvda o'ta jiddiy munosabatga qaytmog'imiz, bu borada Imom al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Iso at-Termiziy saboqlarini diqqat bilan o'rganmog'imiz darkor.

Sunna bosqichining yana bir yutug'i islom mintaqa xalqlari ma'naviy takomilining ushbu birinchi pog'onasida shakllangan 5 islomiy mazhab, ya'ni islom e'tiqodiga oid qarashlar va amallarning ba'zi farqlarga ega bo'lgan besh yo'nalishi orasida bir-birini inkor etmaslik va o'zaro hurmat munosabatlari o'rnatilishidir. Bunday vaziyat osonlikcha va birvarakay shakllangani yo'q, albatta. Lekin oxir natijada yuzaga kelgan bunday o'zaro murosaholati muayyan darajada e'tiqod masalalarida taassub (fanatizm) va bir yoqlama aqidaparastlik xavfining oldini olib, shu bilan birga keyingi rivojlanishga zamin hozirlagan omillardan bo'ldi.

Dastlab Imomi A'zam Abu Xanifa an-Nu'mon ibn Sobit (699-767) qarashlari asosida sunniy yo'nalishida Hanafiya mazhabi shakllangan bo'lsa, keyin ul zotning shogird va izdoshlari tomonidan molikiya, shofe'iya, xanbaliya mazhablari, shia yo'nalishida esa payg'ambarimiz avlodidan oltinchi imom Ja'far as-Sodiq (700-765) nomi bilan bog'liq ja'fariya mazhabi vujudga keldi.

2. Mustaqillik va Islom diniy qadriyatlarning zamon talablari darajasida rivojlantirishi.

2.1. Markaziy Osiyo tasavvufshunosligi va huquq qarashlari

Tasavvuf haqida gapirganda, albatta, turkiy tasavvuf namoyandalari haqida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Ma'lumki, Alisher Navoiy o'zining «Nasoyim ul-mahabbat shamoyim ul-futuvva» asarida turkiy tasavvuf shayxlari haqida batafsil ma'lumotlar bergan. Bu o'rinda biz faqat jahon tasavvuf tariqatlaridan eng mashhurlarining asoschilari hisoblangan Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy va Bahovuddin Naqshband faoliyatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz, xolos.

Sharqning mashhur irfoniylaridan biri, Kubraviya tariqatining asoschisi «shayxi valiytarosh» deb nom chiqargan Najmiddin Kubro 1145 yili Xorazmda tavallud topgan bo'lib, 1221 yili mo'g'ul bosqinchilari qo'lida shahid bo'lgan. Najmiddin Kubro ham orif, ham oshiq, ham shoir sifatida mashhur. U ruboiylar, «Favoih al-Jamol va favotih al-Jalol», «Al-usul al-ashara», «Risalat al-Xoif al-Xa'im min laumon al-la'im», «Risalat odob uz-zokirin» kabi arab tilidagi asarlarning hamda so'fiylar uchun fors tilida alohida yozilgan qo'llanmaning muallifidir.

U o'z tasavvuf maktabini yaratdi. Ko'plab muridlar uning tarbiyatida shayxlik martabasiga erishganlar. Najmiddin Kubro asos solgan maktab bir qancha mustaqil shohobchalar vujudga kelishiga sabab bo'ldi va ular musulmon Sharqida keng tarqaldi. Jumladan, buyuk tasavvuf shoiri Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiyni padari

buzrukvori, Balx shahrining eng nufuzli ulamosi Shayx Bahovuddin Valad, taniqli tasavvuf adiblari Azizuddin Nasafiy va Najmiddin Doya kabi o'nlab islom olamida shuhrat taratgan shaxslar kubraviya tariqatining vakillari hisoblanadi.

Turkiy tasavvufning yana bir yirik vakili Xoja Ahmad Yassaviy Sayramda Ibrohim ota oilasida dunyoga keldi. Uning vafoti manbalarda 1166 yil deb ko'rsatilgan. U Buxoroda Abduxoliq G'ijduvoniylar bilan birgalikda Yusuf Hamadoniylar maktabida tahsil olgan deb rivoyat qilinadi. So'ngra Turkistonga qaytib, mustaqil Yassaviya tariqatiga asos soldi va o'z ta'limoti bo'yicha muridlar tarbiyaladi.

Ahmad Yassaviy islom ahkomlarining turkiy xalqlar orasida yoyilishiga katta hissa qo'shdi. Irfoniy adabiyotda maxsus «Hikmat» janrining yaratilishi ham uning nomi bilan bog'liq. U o'z hikmatlarida ishq, poklik, halollik, yolg'ondan saqlanish, kishi moliga xiyonat qilmaslik, to'g'rilik kabi ko'pgina insoniy fazilatlar haqida kuyladi. U turkiy tasavvuf adabiyotida o'ziga xos maktabga asos soldi. Turkiy dunyoda biror so'fiy shoir yo'qki, unga ergashmagan, undan o'rganmagan bo'lsin.

«Maqomoti xoja Bahovuddin Naqshband» kitobida shunday rivoyat bor: «Bir kuni xojamizning sharif suhbatlarida Sulton ul-Orifin (ya'ni Boyazid Bastomiylar)ning «Bu yo'lda yuruvchi qanchalik yurmasin, so'nggi qadami bizning birinchi qadamimiz ustida bo'ladi», degan so'zlari naql qilinibdi. Xojamiz g'ayrat yuzasidan: «Birinchi qadami Boyazidning oxirgi qadami ustida bo'lmagan kishiga Haq subhonahuning suhbatlari harom bo'lsin!» degan edilar. Va ular: «Biz intihoni ibtidoda tugallaymiz», der edilar.»¹⁰

Ushbu naqlda bir haqiqat aks etgan: tasavvuf irfonining takomilida Boyazid Bastomiylar (IX asr oxiri) yo'l boshida, Bahovuddin Naqshband

10 Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон (Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд). Т.-«Ёзувчи»-1993, с.47

(1318-1383) esa yo‘l oxirida turiptilar. Boyazid Bastomiyning oxirgi qadami, naqshbandiya suluki uchun birinchi qadam bo‘lmog‘ligi farzdir, chunki tadrijiylik shuni taqozo etadi.

Darhaqiqat, IX asrdan ongli ravishda rivojlana boshlagan tasavvuf irfoni XII-XIII asrlarda o‘zining oliy bosqichiga ko‘tarilib, naqshbandiya tariqatida mukammal nihoya topdi. Shu sababli keyingi asrlarning eng keng tarqalgan (g‘arbda Hijoza Yaman, shimolda Bolqonu Volgabo‘yi, janubda Indoneziyagacha urf bo‘lgan) tariqati naqshbandiya bo‘ldi. Naqshbandiya yo‘li, aytib o‘tganimizdek, Bahouddin Naqshband hazratlaridan ancha ilgari Yusuf Hamadoni va Abduholiq G‘ijduvoni (vafoti 1179)lar tomonidan «Xojagon» suluki sifatida asos olgan bo‘lib, uning mashhur o‘n bir qoidasidan sakkiztasi o‘sha XII asrdayoq shakllanganligi ma’lum.

Naqshbandning eng mashhur iborasi «Dil ba yoru dast ba kor» («Dil yor bilan, qo‘l ish bilan band bo‘lsin») esa endi tasavvuf irfoni o‘z asosiy maqsadiga erishganligini, ya’ni Haqiqat asrori ko‘ngillardan muqim o‘rin olganligi va bu yog‘i amaliy harakat birinchi o‘ringa chiqqan boshlaganini bildirar edi. Endi so‘fiyning «Analhaq», ya’ni men Haqiqatni topdim, men Haq asrorini anglab yetishga erishdim, deb hayratlanishi oxirgi qadam emas, birinchi qadam bo‘lib qolgan edi. Behuda emaski, hazrati Bahouddindan naql etadilar: «Talab ayyomlarida Mansur Xalloy sifati ikki marta menda tug‘yon urdi. Bir dor bor edi, ikki marta o‘zimni dor ostiga yetkazdim va dedim: «Joying mana shu dordir! Tangri inoyati bilan bu maqomdan o‘tib ketoldim.» Hazrati Azizon (Xoja Ali Rometaniy - vafoti 1321 yil) aytgan ekanlar: «Agar yer yuzida Xoja Abduholiq G‘ijduvoni qaddasallohu sirrahu-l-azizning farzandlari (ya’ni, ma’naviy merosxo‘rlari - muridlari) dan bir kishi bo‘lganida edi, Mansur hargiz

dorga osilmas edi.»¹¹ Bu rivoyatlar yana bir marta naqshbandiya tariqatining mintqa ma'naviyati takomilida irfon bosqichi uchun yakunlovchi va umumlashtiruvchi bo'lganligiga ishora etadi.

Komil inson masalasi bog'liq bo'lgan mavzulardan biri hisoblanadi. Tasavvuf ta'limoti markazida inson mohiyatini tushunib olish, uni tubanliklardan qutqazib, ruhidagi ma'naviy tomonlarni yuksaltirish va komil inson g'oyasi yotadi.

Tasavvuf insonning o'z nafsı ustidan hukmronlik o'rnatib, uni tarbiyalash orqali ezguliklarga undash, yovuzliklar va gunohlardan uzoqlashtirish bilan xayru manfaat manbaiga aylantirishdan iborat yoki boshqacha qilib aytsak, tasavvuf haqiqiy ma'rifatni totib ko'rish, zavq va ilohiy yog'duning mo'min inson qalbida tajalliy etishi (porlashi)dir. Bu ikki holat, ya'ni, zavq va ilohiy nur tajalliysini aql orqali bilib olish mumkin emas, negaki, akl faoliyati moddiy tajriba doirasida cheklangan, ammo tasavvuf tajribasi ruhiy ahamiyatga ega, shunta binoan tasavvuf insonni shariat hududidan chiqmagan holda ruh, zamir va ilohiy nur doirasida chulg'ab oladi.

Tasavvuf yuksalib borayotgan kamolotning eng baland chuqqisidan iborat bo'lib, uning quchli qanotlari bilan uchgan inson ruhi arshi a'lodan ham o'tib, uluhiyat (ilohiylik) sifatlari axloqi bilan bezatilguncha avj olib ko'tariladi. Shayx Amin Alouddin Nakshbandiy fikricha, quyidagi qudsiy hadis ushbu holat va maqomning ifodasidir: «Kuntu sam'uhul-laziy yasma'u bihi va basaruhul-laziy yabsuru bihi» (Msh uning eshitadigan qulog'i va ko'radigan ko'zi edim).

Inson yuksak iste'dod va cheksiz tafakkur egasi bo'lgani sababli tasavvurga sig'maydigan ilmiy yutuklarga erishib, shunday ilmiy-harbiy apparatlar yaratishga muvaffaq bo'ldi-ki, ulardan o'rinsiz va

¹¹ Ўша китоб, с. 38

tuban maqsadlar uchun foydalanish yer yuzi va butun insoniyat uchun kutilmagan fojialarning ke-lib chiqishiga sabab bo'la oladi.

2001 yil 11 seyatyabr kuni AQShda yuz bergan mudhish qo'poruvchilik harakati shuni isbotlab berdiki, vijdoni tuban-likka yuz tutgan, nafsu shayton istaklariga berilgan, ma'na-viyatdan uzoqlashib, axloq va odob nimaligini unutgan kim-salar o'z moddiy va nafsoniy maqsadlariga erishish uchun in-soniyatga qarshi bo'lgan har qanday jinoyatga qo'l urishlari mumkin.

Bugungi kunda faqat moddiy hayotga berilib, har bir nar-sani, har bir qadriyatni faqat moddiy boylik meyorlari bi-lan o'lchab, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni unutib borish xususiyatlari qqol ko'zga tashlanmoqda.

Inson faqat tafakkur va axloq bilan boshqa hayvonlar-dan ajralib turganini nazarda tutadigan bo'lsak, aytish mum-kinki, axloqiy fazilatlardan uzoqlashish har bir inson va barcha insoniyatni tubanlik va tushkunlik sari olib bori-shiga hech shubha yo'q.

Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, ruhiy va ma'naviy ji-hatdan kamolga erishgani tufayli o'z nafsini ustidan hukmron-lik o'rnatib, o'z manfaatini xalq manfaatida va o'z baxtini jamiyat baxtu saodatida ko'rish qobiliyatiga ega bo'lish, va-tan himoyasi va millat tinchligini saqlash yo'lida o'zini qur-bon qilishgacha tayyor turish, ezgu niyat bilan ish olib borib, barchani ezgulikka undash, yuksak madaniyat va chuqur bilim egasi bo'lgan holda barcha insonlarni ularning dini, mazha-bi va e'tiqodidan qati nazar teng huquqli insonlar va yago na haqiqatni qidiruvchilar deb tushunish, barcha bilan do'sto-na munosabatda bo'lib, hech kimga yomonlik qilmaslik, hech kim-ni aqidaviy yoki etnik jihatdan kamsitmaslik xususiyatla-ri ideal komil insonning xususiyatlaridan hisoblanadi.

Shayx Sa'diy tariqatni quyidagi qisqacha iboralar bilan ta'riflagan edi: «Tariqat ishi faqat tasbeh tutib, jun-dan libos kiyib

ibodat qilish bilan bo'lmaydi, tariqat xal-qning xizmatidan boshqa narsa emas».

Farididdin Attor rivoyatiga ko'ra, Shayx Abulhasan Xa-raqoniy bunday degan ekan: «Koshki, barcha xalq uchun men o'lsaydim, o'shanda xalq uchun o'lim bo'lmasdi. Koshki, barcha xalqning hisob-kitobini meya bilan qilishsaydi, o'shanda qiyomat kuni ular uchun savolu javob bo'lmasdi. Koshki, barcha xalq o'rnida mani jazolashsaydi, o'shanda ularni do'zax olo-viga olib borishmagan bo'lardi».

Bunday insonsevarlik komil inson xarakteri qirralari-dan birining in'ikosidir.

Biz o'lkamizda huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurar ekanmiz, yangi avlodni tarbiyalashda tasavvuf ta'limoti va irfoniy qadriyatlardan foydalanib, komil insonning ideal siymosini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga tasvirlab be-rib, undagi oliy sifatlar va axloqiy fazilatlarni o'zlash-tirib olishlarini tavsiya qilishimiz kerak.

Temuriylar davri (uyg'onish davri):Inson va huquq. Agar ba'zan buyuk tarixiy shaxslarning tarjimai holini yoyish va ular haqda izlanish olib borish uchun manbalar va adabiyotlar yetishmasliga muammo bo'lsa, Sohibqiron Amir Temur haqida esa manbalar va adabiyotlarning nihoyatda ko'pligi muammo hisoblanadi.

Bu buyuk inson va iqtidorli davlat arbobi haqida ko'plab asarlar yozilganligiga qaramasdan, totalitar sovet tuzumi davrida, uning porloq hayoti qirralari, siyosiy va huquqiy qarashlari xalqimizdan sir saqlab kelindi. Amir Temur vafotidan so'ng ko'p asrlar o'tgan bo'lsa ham, xalqimiz va madaniyatimiz dushmanlari, u qoldirgan mangu ta'limot va hayotiy qoidalar tiklanishidan xavf sezib, uning siymosini, qandaydir bir mubham-qora pardaga o'rab ko'rsatishga intiladilar.

Biz bu o'rinda bir misol keltirmoqchimiz. Fransuz olimi professor Lyusen Keren umrining asosiy qismini temurshunoslikka

bag'ishlab, bu borada juda ko'p asarlar yaratgan inson Amir Temur tavalludining 660 yilligi munssabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenta tomonidan bu boradagi xizmatlari uchun "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Ming afsuslar bo'lsinkim, qizil imperiya davrida, Amir Temur to'g'risida biror-bir ijobiy so'z aytmoq jinoyat hisoblandi. Uning faoliyati va shaxsiyati faqat qora ko'zoynak orqali o'rganildi, tal

qin qilindi. Ammo mustaqillikka erishilgandan so'ng, bu borada xayrli ishlar boshlandi, bobokalonimiz nomlari haqiqiy ravishda hurmat va ehtirom bilan tilga olinmoqda, YUNESKO rahnamoligida Sohibqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi.

Lyusen Keren haqli ta'kidlaganidek, sovet tuzumi davrida Amir Temur shaxsiyatini yerga urishga, unga bosqinchi sifatida qarashga urinilib, boshqa fazilatlarini chetlab o'tilgan. U 1961 yili O'zbekistonda bo'lganida Temur qanday davlat arbobi bo'lganligi va fazilatlariga doyr uning savollariga javob berishdan bosh tortganlar. Ammo Temuriylar yodgorliklarini inkor etib bo'lmasligi ma'lum edi, chunki Ulug'bekka va umuman Temuriylar madaniyatiga hurmat sezilib turardi. Ehtimol, sovet xukumati Temurni, tarixda ustunlik qilgan, jahonga mash'al bo'lgan madaniyat va sulolani barpo eta olgan insonni, o'zbek xalqi tanishidan qo'rqqandir!

Aslida sho'rolar o'zbeklarning bu e'zozli tarixiy o'tmishi bilan g'ururlanishi, sovetchasiga shaxsga sig'inishdan ustun bo'lib ketishidan cho'chiganligi to'g'riroqdir.

Sohibqironning nuroniy qiyofasidan birinchi bo'lib bunday qalin va qora pardani ko'tarib tashlagan jasoratli olim, akademik Ibrohim Mo'minov bo'ldi. Undan keyin olimning mumtoz shogirdlaridan biri, O'zbekiston tarixi bilimdoni akademik Bo'riboy Axmedov Sohibqiron haqida chuqur ilmiy asarlar yozdi, uning "Tuzuk"larini nashr qildirib, vatan tarixining porloq sahifalarini yoritib berdi. hozirgacha ham bu

faxrli vazifani qunt bilan bajarib kelmoqsa. Shuningdeq Temuriylar davrini yoritishda iste'dodli mehnatkash olim Turg'un Fayziyev bajargan xizmatlar va yozgan asarlar ham katta e'tibor va ahamiyatga ega.

Biz arab, turk, fors va g'arb tillarida nashr etilgan adabiyotlardan tashqari, aytib o'tilgan olimlar yozgan asarlaridan ham foydalanib, buyuk Amir Temurning huquqiy qarashlari va inson huquqlari haqida so'z yuritmoqchimiz.

Temuriylar buyuk davlatining asoschisi Temurbek ibn Tarag'ay, yoshligidanoq zo'ravonlik va zo'ravonlarga qarshi kurash olib borib, jamiyatda adolat meyorlariga muvofiq ish yuritish tuyg'ulari bilan birga o'sdi va kamol darajasiga ko'tarildi.

Temur asos solgan davlatda o'rnatilgan huquqiy tizim, har doim ustun turib, uning normalariga rioya qilib amalga oshirish barcha uchun majburiy, tartibni buzgan va o'z vazifasini bajarmagan kishilarga qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'lingan. Ayniqsa, davlat xavfsizligini buzganlar qattiq jazolanganlar.

Sohibqiron Amir Temur islom huquqshunoslik ilmini har tomonlama o'zlashtirib olgan edi. Bu sohada u yuksak darajaga ko'tarilib, fatvo berish salohiyatiga ega bo'lgan edi. Qur'oni karimning barcha oyatlarini yodlab olib, ularni avvaldan oxirga va oxirdan avvalga qarab yoddan o'qish malakasiga ega bo'lgan Amir Temur, ularning tub mazmunini chuqur tushunib, ayrimlarini o'zining ish dasturiga aylantirgan edi. Oyatlar va hadislarga uning ishonch va e'tiqodi shu qadar kuchdi bo'lganki, ularni o'sha davrning buyuk binolarida chiroyli "islomiy" xatlar bilan yozib qo'yishga buyruq bergan. Aytish mumkinki, Temuriylar davridan qolgan biron bir binoni ham ilm-adolat, hikmat, ayniqsa, fiqh ilmiga doyr oyatlar, hadislar va hikmatli so'zlarsiz ko'rish mumkin emas. Amir Temur davlatida islom huquqining asosiy qoidalaridan biri bo'lmish va hozirda ham xalqaro

miqyosda qabul qilingan qoida, ya'ni "jinoyatning shaxsiyligi"ga jiddiy rioya qilingan, yani jinoyatchining gunohi uchun uning qavm-qarindoshi, og'ainilari (jinoyatda ishtirok etmagan holda) javobgar bo'lmaganlar, shuningdek, jinoyatga qo'l urgan kishi, jazosiz qoldirilmagan va gunohsiz kishini jazolashga yo'l qo'yilmagan. Amir Temur ushbu prinsipni, davlat huquqiy tizimining asosiy qoidalaridan biri deb bilgan. U "men har doim askarlarimni qonunga itoat qilish ruhi bilan tarbiyalab keldim, qonun buzuvchilarni jazosiz qoldirmadim" deb ta'kidlagan edi.

Rossiya, Afg'oniston va Eronning ayrim tarixchilari, g'oyaviy, mazhabiy yoki etnik taassublarga asoslangan holda Amir Temurga nisbatan insofsizlik bilan haddan ortiq qarshi fikrlar bildirib, uning davlatida adolat meyorlari amalga oshirilganligiga shubha va tahdid ko'zi bilan qarab kelganlar.

Amir Temurning eng ashaddiy muxoliflaridan biri bo'lmish ibn Arabshoh yozgan to'kima fikrlarga qo'shilib, unta nisbatan salbiy munosabatda bo'lganlar.

Akademik V.Bartold o'zining "Ulug'bek va uning davri" nomli asarida va amerikalik mashhur tarixchi Xoruld Lemb o'zining "Temur" nomli kitobida, ibn Arabshohni g'arazli kishi deb bilib, u bergan ma'lumotlarni dushmanlik va adovatdan sarchina olgan va u yozgan iboralarni hajv va istehzo (masxara qilish)dan boshqa narsa emas, deb yozganlar. (Ibn Arabshoh kitobining forsha tarjimasi Muqaddimasi). Pekin Sohibqironning shaxsiyati shu qadar yuksak va maqomi shu qadar baland ediki, ibn Arabshoh har qancha qora oyna ortidan boqsa ham, uning dahosi, layoqati, insoniy qiyofasi va adolatsevarligini inkor qila olmagan va ularni e'tirof etishga majbur bo'lgan. Biz uning kitobidan (forsha matnidan tarjima qilib) ayrim satrlarni bu haqda keltiramiz:

"Ishlarni bajarishda Temur o'tkir fikr va uzoqni ko'ra bilish qobiliyatiga ega edi... Uning tafakkur dengizi cheksiz edi... har doim qonunlarni o'z mamlakatida amalga oshirib turardi... hikmat va jadal (munozara)da Ibn Sinoni ortda qoldirar, mantiqda yunonliklarni soqit qilardi".

"U, behuda so'zlash va hazilkashlikni yoqtirmasdi, hech qachon havo va havasga ko'ngil bermasdi, to'g'rilik va rostlikni hatto uning zarariga bo'lsa ham yaxshi ko'rardi... Uning majlisida nosazo aytish, qon to'kish, asirlikka olish, or-nomusga tegish va g'orat qilishdan so'zlash mumkin emas edi... Temur yetuk akd ajoyib idrok, yuksak baxtu iqbol, kelishgan tole, izchil iroda va qat'iy fikr egasi edi... Nihoyat ziyraklik bilan haqni botiddin ajrata olib, o'ch dihosini bilan haqiqiy o'git beruvchini laganbardordan farq etardi... O'z yorqin fshiflari bilan porloq yudduzlarga yo'l ko'rsatardi va yudduzlar o'qi uning rayi (fikri) va irodasiga qarab, maqsadga borib tegadi deb o'ylandi kishi".

Sohibqiron o'z avlodlarini o'ch-intiqom olmaslikka, har doim tinchlik va yarashish yo'llari ochib qo'yishga chaqirib kelgan. Shuning uchun Amir Temurdan keyin ham vatanparvarlik, adolatsevarlik, qonunga bo'ysunish Temuriylar davlatining unutib bo'lmas an'analariga aylanib qolgan.

Shuningdek, hindistondan katta o'lka Boburiylar imperiyasi hududida adolatni ta'minlash maqsadida Avrangzeb Olamgir nazari ostida "Fagovoy hindiya" deb atalgan to'rt jiddlik huquqiy kodeks yaratilib, Boburiylar hokimiyatga tugagunga qadar butun hindiston sudlarida rasmiy qonun sifatida ishlatilib kelingan.

Sohibqiron Amir Temur asos solgan buyuk davlat o'zining turli bosqichlarida, ham Turon, ham ham Eron va ham hindiston yarim orolida adolat meyorlariga asoslangan tuzum sifatida barcha olam

ahlining diqqatini o'ziga tortib kelib, bugunga qadar ham o'z tarixiy ahamiyatini yo'qotmagan.

Ma'lumki, Sohibqiron Amir Temurning hurmat va e'tiboriga molik meroslaridan biri uning siyosiy va huquqiy qarashlari

majmui bo'lgan "Temur tuzuklari"dir. Dunyoning turli tillariga tarjima qilingan ushbu asar, davlatni idora qilish usullari, qo'shinni tashkil etish qoidalar, urushlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan turli harbiy uslublar singari qator siyosiy, huquqiy, harbiy va axloqiy g'oyalar va meyorlarni o'z ichiga olgan "Tuzuklar"ning markazida inson, uning qadr-qimmatini joyiga qo'yish turadi.

Amir Temurning maslahatchisi va G'arb mamlakatlariga yuborgan xristian elchisi (Sultoniya usqufi) hozirda Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan xotiralarida Amir Temur haqida: "Temurbek fors, arab va turk tillarini biladi. Qur'on ilmi va islom huquqshunosligi ilmida shu qadar kuchli olimki, hech bir musulmon olimi u bilan munozara qilishga qodir emas, u olim va shoirlarga katga hurmat qo'il. Buning sababi shundaki, uning o'zi olim va donishmanddir", deb ta'kidlagan

Temuriylar saltanati va Markaziy Osiyodagi Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichiga asos solgan Sohibqiron Amir Temur o'zi ning barcha siyosiy va amaliy faoliyatini shariat qoidalariga tayanib yuritgan. U, "Men o'z saltanatimni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni tuzuk asosida bajardim. Shariat qonunlariga itoat qilish, urf-odatga e'tibor berish, men uchun katta ahamiyatga ega edi. Hozircha ham shunday ahamiyatga egadir. Menimcha, modomiki, bir hukmdor butun umri davomida ot ustida o'tirib, o'ziga tegishli bo'lgan katta iqlimning har tomonida harakatda bo'lib, bir nuqtada turib qolmas ekan, o'zining keng kalamravn (mamlakati) undan itoat qilipgaga amin bo'lishi kerak. Bunday ishonchga faqat shariat qonunlari va urf-odat qoidalarini amalga oshirish orqali muyassar

bo'la oladi. Mening mamlakatimda turli sohalarda qonunga qat'iy amal qilinadigan bo'lsa, men o'zimni o'sha yerda hozir turganday sezardim. Shariat va urf qonunlarini nazarda tutgan holdagina, odamlar sening ishlaringga ishonadi va uni jonu dil bilan bajaradi. Men hamisha askarlarimni, qonunga itoat qilish ruhida tarbiya qildim, qonun buzuvchilarni jazosiz qoldirmadim",-deb ta'kidlagan.

Qonunga asoslangan tizimning ahamiyatini chuqur anglab olgan Amir Temur haqli ravishda, "kuch adolatdadir" degan oliy meyorini shior qilib olgan. Uning bu so'zi bugun ham qudratli, huquqiy demokratik davlat qurish uchun, asosiy yo'llanma hisoblanadi. Amir Temurning huquqiy qarashlari va amaliy faoliyati har doim adolat va insof meyorlari bilan hamohang bo'lgan. U adolatsiz hokimiyatni tasavvur qila olmagan.

O'z davlatida tuzuk-to'ra va shariat qoidalari ustuvorligini amalda ta'minlagan U davlatni boshqarish uchun, shunday bir qonuniy tizim yaratganki, undan keyin ham ko'p asrlar davomida barcha Huroson, Turkiston, Movarounnahr va hindiston hududlarida, uning "Tuzuklar"iga asoslanib ish yuritilgan. "Adovat emas, adolat yengadi" degan uning mo'jaz va qimmatli so'zi, amaliy hayotda naqadar ahamiyatlidir.

Amir Temur har doim ilmu fanga qiziqqan, turli kitoblar va ilmiy asarlarni o'qigan, ularning tub mohiyatini tushungan. Masalan, buyuk orif-shoir Mahmud Shabistariyning "Gulshani roz" asari, uni butunlay o'ziga tortgan, inson, xudo haqida chuqur o'ylashga undagan U kitob muallifiga hurmati sababli, Ozarbayjonni tasarruf qilgandan so'ng, shoirning vatani bo'lmish Shabistar aholisini ardoqlab, ularning har biriga besh misqol tilladan, hammasi bo'lib, 18 ming besh yuz besh misqol tilla bag'ishlaydi.

Amir Temurning huquqiy tizimida jinoyatga qo'l urgan barcha kishilar kimligidan qati nazar, qonun oldida hech qanday imtiyozsiz

javobgarlikka tortilgan. Biz Amir Temur hayotini o'rganar ekanmiz, u amalga oshirgan odilona ishlarni xalifa Umar Foruq bajargan buyuk va adolatli ishlarga o'xshatgimiz keladi.

Sohibqironning huquqiy qarashlarida uning 12 ta asosiy qoidolari muhim hisoblanadi. Sohibqiron: "Endi menning nomdor baxtiyor farzandlarim va mamlakatlarni zabt etuvchi iqtidorli nevaralarimga yo'l-yo'rig'im shukim, men 12 narsani o'zimga shior qilib olib, saltanat martabasiga erishdim. 12 narsa yordamida saltanatni boshqardim va saltanat taxtga zebu ziynat berdim" , -deb yozadi. "Mening davlat va saltanatga bog'langan tuzugim:

birinchidan, Tangri taolo dini, Muhammad Mustafo shariatiga dunyoda rivoj berdim. Dar yerda va har vaqg islom dinini quvvatladim;

ikkinchidan, 12 tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabt etdim. Davlat, saltanat ustunlarini o'shalar bilan mustahkamlab, majlislarimni ular bilan bezatdim;

uchinchidan, maslahat kengashi, tadbirkorlik, faollik, hushyorlik va ehtiyotkorlik bilan g'anim qo'shinlarini yengib mamlakatlarni o'zimga bo'ysundirdim, do'st va dushman bilan murosa va madora qildim;

to'rtinchidan, davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqarishni yo'lga qo'ydim;

beshinchidan, amirlar va sipohiylar bilan yaxshi munosabatda bo'ldim, ularga izzat va hurmat ko'rsatib, martaba va unvonlarini hurmat qildim, ularning turmush tarzidan xabardor bo'lib turdim;

oltinchidan, ishlarni adolat va insof bilan yuritdim, gunohkorga ham, gunohsizga ham, rahmu shafqat ko'rsatib, haqqoniyag yuzasidan hukm chiqardim;

yettinchidan, sayidlar, olimlar, mashoix, oqil va donolar, muhandislar va tarixchilarga hurmat ko'zi bilan qarab, ular bergan maslahatlardan foydalandim;

sakkizinchidan, bir ishni boshlagandan keyin azmni jazm qilib, qat'iylik bilan oxiriga yetkazdim;

to'qqizinchidan, raiyat hol-ahvolidan har doim xabardor bo'lib turib, hokimlar, sipohiylar tomonidan raiyatga jabru sitam ko'rsatilgan bo'lsa, ularni adolatu insof yuzasidan jazoladim;

O'ninchidan, turk-tojik, arab va ajamning turli toifalaridan uning panohimda bo'lgan kishilarga ehtirom bilan muomala qilib, karamli va kechirimli bo'ldim;

2.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustaqillik, Demokramk va inson huquqlari uyg'unligi

Mustaqil O'zbekiston insoniyat ruhining ulug'vorligi va aql ziyosining ramzi, umumbashariyat tafakkurining beshiklaridan biri bo'lmish diyordir. Mustaqil O'zbekiston-noyob madaniyat va yuksak ma'rifat, Sharq turmushi falsafasi, insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan adabiyot va nafis sanat mamlakatidir. Mustaqil O'zbekistonning buyuk tarixi va hozirgi zamoni o'zaro uzviy bog'liq. Uning aql-ziyo va ma'naviy-tarixiy salohiyati jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi.

XX asrning so'nggi o'n yilligi jahon tarixiga ijtimoiy dunyoqarashda, shuningdek jahon hamjamiyatining jo'g'rofiy-siyosiy (geopolitik) tuzilishida tub o'zgarishlar davri bo'lib kirdi. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, yer kurrasiningturli mintaqalarida milliy-ozodlik va mustaqillik harakatlari kuchayib bordi. Mazlum xalqlarning istiqlool, erk uchun kurashi asrning g'oyasiga aylandi. Mustaqillik uchun kurash "XX asrning eng asosiy, eng muhim ijtimoiy-siyosiy tamoyili sifatida ajralib turadi".

Ikkinchidan, sotsialistik lagerning yemirilishi, totalitar tuzumlarning tugatilishi natijasida yosh mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Yer yuzining oltidan bir qismida tub islohotlar boshlandi.

Uchinchidan, endilikda butun dunyo yagona va o'zaro bog'liqdk. Davlatlar va xalqlar o'rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorlikning kuchayishi, yaxlit siyosiy va iqtisodiy makonlarning vujudga kelishi, yagona xalqaro meyorlar, qoidalarga o'tish yaqqol namoyon bo'lmoqda.

To'rtinchidan, aqidaga aylanib qolgan "kapitalistik olam" va "sotsialistik olam" tushunchalari o'rtasida chegara qolmaganligi tufayli siyosiy-aqvdaviy mafkuralardan xoli bo'lgan yangi erkin tafakkurni shakllantirish zarurati yuzaga keldi.

Beshinchidan, ijtimoiy va tarixiy ananalarning o'ziga xosligiga tayanadigan shakl va usullarning xilma-xilligi e'tirof qilindi. har qanday mamlakat uchun birday tavsiya etishi mumkin bo'lgan taraqqiyot modellari va yo'llarining yo'qligi aniq-ravshan bo'lib qoldi.

Oltinchidan, har qanday davlat tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-ruxiy, diniy-demografik, tabiiy-iqlim va boshqa sharoitlarni, mintaqalarning obektiv farqini hisobga olgan holda o'z taraqqiyot yo'lidan borishi tan olindi.

Sobiq sovet mustamlakachiligi davrida milliy tariximiz bilan xalqimizni tanishtira olmadik. Tariximizga bo'lgan bunday munosabatning sabablari turlicha.

Birinchidan, sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan xalqlardan slavyanlar, birinchi navbatda rus xalqi tarixnni o'rganish va uning ijobiy tomonlarini haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatish, Sharq xalqlari, shu jumladan, uzbek xalqi tarixini kamsitish, uning o'tmishini asosan "qora bo'yoq"larda ko'rsatishga, ijobiy tomonlari haqida og'iz ochirmaslikka harakat qilish asosiy tamoyilga aylangan edi. Bu sovet

imperiyasi davrida barcha ijtimoiy fanlarda keng tarqalgan va muhim o'rin olgan "ovrupotsentizm"cha yondoshuvning natijasi edi.

Ikkinchidan, bu davrda xalqimizning faqat qo'llariga emas, hatto tiliga ham kishan solindi, xalqniig ming-ming yillik madaniyati va ma'rifati oyoq osti qilindi. O'zgalar madaniyati, yozuvi, tili, urf-odati majburan olib kirildi. Milliy madaniyatimizning zaiflashishi natijasida, ayniqsa, birlik, hamkorlik, hamdo'stlik, milliy g'urur an'analari unutila boshlandi. Pirovardida, o'tmish bilan hozirgi kun o'rtasida keskin uzilish paydo bo'ddi. Sharqning buyuk allomalari, xalqimiz tarixi va fanida o'chmas iz qoldirganlarning ayrimlarini bilsakda, ularning ilmiy va madaniy meroslaridan chetlashtirildik. Mazkur omillarning barchasi millatimiz ravnaqiga va istiqboliga, o'zligimizni anglab olishimizga, milliy tilimiz va madaniyatimiz rivojiga salbiy ta'sir o'tkazdi.

Uchinchidan, yakka kommunistik mafkura hukmronligi davrida sotsialistik davlat va demokratiya, sotsialistik huquq va qonunchilik, sotsialistik odil sudlov va huquqiy tartibot, umumbashariy huquqiy qadriyatlarning eng oliy va so'nggi namunasi deb ko'klarga ko'tarib maqtaldi, ularda aslida bo'lmagan xususiyatlar va jihatlar haqida tinmay gapirildi va yozildi. 1917 yilgi Oktabr davlat to'ntarishigacha bo'lgan davlat va huquq tarixi esa faqat bir tomonlama yoritildi. Qadimgi, o'rta asrlardagi, yangi davrdagi davlat-huquqiy institutlarning reaksiya mohiyatini, xalq manfaatiga zid ekanligini va cheklanganligini ko'rsatishga harakat qilinib, ularning ijobiy tomonlari haqida lom-lim deyilmadi

To'rtinchidan, Sharq xalqlari, shu jumladan uzbek milliy davlatchiligi va huquqi tarixini o'rganishgaturli xil yo'llar bilan to'sqinlik qilib kelindi. Agar darsliklarda, o'quv dasturlari va qo'llanmalarida uzbek davlati va huquqi tarixi, yirik davlat arboblari, siyosiy mutafakkirlari to'g'risida u yoki bu darajada so'z yuritishiga

to'g'ri kelgan holda ham ko'proq davlatning despotik xususiyatlari, qrnunsizlik, zo'ravonlikning hukm surganligi, shariat va islom huquqining reaksiyaviy deb da'vo qilingan mohiyaga, podshohlar zulmi, qonxo'rliqi, bosqinchiligi, ularga qarshi xalq qo'zg'olonlari, xalq orasidan yetishib chiqqan allomalarning siyosiy-huquqiy qarashlari idealistik, diniy-mistik, xayotiy, xalq manfaatidan yiroq deb uqtirildi, ularning jahon davlatchiligi boshqaruvi tajribasiga va huquqiy madaniyatiga qo'shgan hissalarini haqida og'iz ham ochilmadi.

Beshinchidan, O'zbekistonning davlat va huquq tarixi oliy huquqshunoslik bilim yurtlarida asosiy fan sifatida emas, balki ikkinchi darajali fan sifatida o'qitib kelindi. Bu fanlarni o'rganish uchun juda ham kam o'quv soati ajratilardi. XX asrgacha bo'lgan O'zbekiston hududidagi davlatlar va huquq (xususan, shariat) tarixi bo'yicha birorta mutaxassis tayyorlanmadi.

Oltinchidan, SSSR davlati va huquqi tarixi fani o'quv dasturlari va darsliklarida uzbek davlatchiligi va huquqi tarixi haqida deyarli hech narsa deyilmas edi. Bu fanni o'qitishda butun e'tibor rus davlati va huquqi tarixini o'rganishga qaratib kelindi. Mazkur hodisa favqulodda bir hol bo'lmay, balki avvaldan rejalashtirilgan ruslashtirish siyosatining natijasi edi. Maqsad rus xalqidan boshqa xalqlarni, jumladan, uzbek xalqini o'z davlati va huquqi tarixidan ajratish, go'yoki bunday tarix bo'lmagan degan fikrni tug'dirish va singdirish edi. Shunday yo'l tutishdan asosiy maqsad kelajakda milliy davlatchilik va huquq tizimiga barham berib, tom ma'nodagi yagona davlatni tashkil qilish edi.

Mustaqillik tufayli tarixga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarish. Biz o'z tariximizni, jumladan, ona zaminimizda tuzilgan va ravnaq toptan davlatlar va huquqiy tizimlar tarixini xolisona, mafkuraviy aqidalarni xolisona o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Bu borada so'nggi yillarda bir qator ijobiy ishlar qilindi. Tariximiz, dinimiz,

madaniyatimiz va ma'naviy o'tmishimizni o'rganishga astoydil kirishdik. Borlig'imizni, boyligimizni, qadriyatlarimizni dunyoga ayon qila boshladik.

O'zbekistonda sharq sivilizatsiyasi va inson huquqlarini chuqur bilishning asosiy sabablari

Birinchidan, o'z tarixini, nasl-nasabini, merosini bilmagan millatning kelajagi bo'lmaydi. Chunki har bir xalqning tarixi mavjud. O'z tarixini bilmagan, uning ijobiy va salbiy tajribalarini o'rganib, undan tegishli xulosa chiqarmagan xalq o'zining bugungi hayotini va uning muammolarini tushunib yeta olmaydi, o'z kelajagi haqida aniq tasavvurga, puxta ishlangan dasturga ega bo'la olmaydi.

O'tmishdagi tarixni unutib, endigi tarixini tuymagan (his qilmagan) millat qorong'ulikda qolgan, qo'lida tayog'i yo'q ko'r kishi kabi qayoqqa oyoq qo'yishini bilmaganliqdan dushman yetakchisi ketidan ketishga majbur bo'ladi.

Ikkinchidan O'zbekistan davlati va huquq tarixini har tomonlama chuqur o'rganish faqat ilmiy va ma'naviy ahamiyat kasb etib qolmasdan, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir. Ona zaminimizda bir necha ming yilliklar davomida shakllanib va rivojlanib kelgan davlatchilik va huquq tarixini o'rganish va uning sabsjlaridan mustaqillikni mustahkamlash yo'lida foydalanish kerak. Tarix har bir inoonni o'z Vataniga muhabbat, sadoqat, o'z xalqining o'tmishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, uning hozirgi Kuni va kelajagi bilan g'ururlanish ruhida tarbiyalashning muhim usullaridan, vositalaridan biridir. Biz davlatchilik tarixiy tajribamizni va siyosiy-huquqiy merosimizni atroflicha, xolisona o'rganish milliy huquqiy mafkurani shakllantirishda muhim tayanch, bitmas-tuganmas bir tajriba, g'oyaviy asos sifatida xizmat qiladigan manbalarga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston konstitusiyasi - Mustaqillik, demokratiya va inson huquqlari asosi. Mustaqil O‘zbekiston-insoniyat ruhining ulug‘vorligi va aql ziyosining ramzi, umumbashariy tafakkurining beshiklaridan biri bo‘lmish diyordir. Mustaqil O‘zbekiston-noyob madaniyat va yuksak ma’rifat, Sharq turmush falsafasi, insonparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan adabiyot va nafis sanat mamlakatidir. Mustaqil O‘zbekistonning buyuk ko‘hna tarixi va hozirgi zamoni o‘zaro uzviy bog‘liq. Uning aql-ziyo va ma’naviy-tarixiy salohiyati jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallaydi.

Dunyoning umumiy siyosiy-ijtimoiy jarayonlari nuqtai nazaridan qaraganda O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishuvi tarixiy muqarrar hodisadir. Shuning uchun ham 1991 yilning 1 sentabridan boshlab jahon siyosiy xaritasida yangi mustaqil davlat-O‘zbekiston Respublikasining paydo bo‘lishi tasodiy yoki favqulodda hodisa emas, balki u ona zaminimizda asrlar osha o‘zbek xalqi va o‘zbek xalqi bilan yashab va mehnat qilayotgan mamlakatimiz xalqlarining asriy orzusi ro‘yobga chiqishi, olib borilgan mashaqqatli, aksariyat hollarda fojeali kurashning mahsulidir.

1990 yil 20 iyunda "Mustaqillik deklaratsiyasi", 1991 yil 31 avgustda "O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari haqida" konstitusiyaviy qonun O‘zbekiston parlamenti tomonidan qabul qilindi. 1 sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb e’lon qilindi. Xalqimiz asrlar osha qilib kelgan orzusi amalga oshdi.

Har bir davlatning davlat sifatida qaytarilmas va o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatuvchi asosiy hujjat uning Konstitusiyasidir. Jamiyatni umumbashariy huquqiy qadriyatlar asosida tashkil etishda Konstitusiyaning ahamiyati beqiyosdir. Asosiy Qonun o‘z mohiyati e’tibori bilan har qanday demokratik jamiyatning bosh belgilaridan biri bo‘lib, unda inson, shaxs va jamiyatning huquqiy jihatlari, davlat

hokimiyatining tuzilishi va uning idoralari faoliyatini tashkil etishning mezoniy qoidalari ifoda etiladi. Bir soʻz bilan aytganda, Konstitutsiya davlatning oʻziga xos tanishtiruv hujjati, "pasporti" desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Har qanday mustaqil davlatning yuzi, obroʻ-eʼtibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya, yoʻlboshchimiz haqli ravisha taʼkidlaganlaridek, davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir. Shu maʼnoda Asosiy Qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettirdi. Konstitutsiyamiz tom maʼnoda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir.

Mustaqil Oʻzbekistonning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilingan kundan buyon oʻtgan muddat tarix ummonida bir tomchidir, xolos. Lekin uning boy mazmuni va taqdirilomon mohiyatini hisobga olsak, hozirgi har bir kunimizning yillarga tatigulik ekanligini eʼtirof etmoq zarur.

Oʻzbekiston Konstitutsiyasi, birinchidan, tarixiy va hozirgi zamon ilgʻor jahon konstitutsiyaviy tajribasini oʻzida mujassamlashtirgan, ikkinchidan, milliy, tarixiy, axloqiy, diniy, huquqiy anʼanalarimizni jahon konstitutsiyaviy amaliyoti bilan uzviy ravishda bogʻlagan; uchinchidan, totalitar tuzumdan huquqiy davlat va demokratik fuqarolik jamiyatiga oʻtayotgan yosh mustaqil davlatning Konstitutsiyasi qanday boʻlishi kerak degan savolga javob beradi. Shuning uchun ham Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-bu umumbashariy va milliy huquqiy qadriyatlarni oʻzida uygʻunlashtirgan qoidalar va normalar majmuidir.

Jahon konstitutsiyaviy tajribasi oʻzaro bir-biri bilan uzviy bogliq uch tarkibiy qismdan iborat. Birinchidan, Konstitutsiya toʻgʻrisidagi gʻoyalar, qarashlar, taʼlimotlar. Bular oʻzining tarixiy kelib chiqishiga koʻra juda qadimiydir. "Konstitutsiya" iborasi Qadimgi Rim

respublikasida paydo bo'lgan. O'rta asrlarda esa u yoki bu davlatning konstitutsiyaviy xarakterdagi asosiy qonunlari asosan "Xartiya" deb yuritilgan. Konstitutsiyaviy xarakterdagi qonunlar jumlasiga "Temur tuzuklari" ham kiradi. U turk xalqlarining birinchi muayyan tizimga solingan kodifikatsiyaviy aktidir.

Ikkinchidan, tarixiy va hozirgi kunda amal qilinayotgan Konstitutsiyalar. Konstitutsiya yagona huquqiy hujjat sifatida 1787 - yilda AKTPda paydo bo'lgan, ya'ni XVIII asr mahsulidir. Taxminiy hisoblarga qaraganda shu kungacha jahonda 800 ga yaqin Konstitutsiya qabul qilingan.

Uchinchidan, konstitutsiyaviy amaliyot, ya'ni Konstitutsiyaning amaliy harakati, qo'llanilishi. Konstitutsiya har bir jamiyat va davlat taraqqiyotining huquqiy asoslarini yaratadi. Konstitutsiya iqtisodiy, siyosiy, huquqiy islohotlar, tinchlik, totuvlik, barqarorlik kafolatidir.

O'zbekiston jahon konstitutsiyaviy tajribasiga quyidagi yo'nalishlarda amaliy hissa qo'shgan. Birinchidan, jahon konstitutsiyaviy ta'limotiga va nazariyasiga. Bu hissa avvalambor, Movarounnahr fiqh ta'limoti namoyondalarining asarlarida yaratilgan islom huquqi qadriyatlari haqidagi qarashlarda namoyon bo'ladi. Misol uchun, Burhoniddin Marg'inoniyning to'rt jildli fundamental "hidoya" asarini ko'rsatish mumkin.

Ikkinchidan, O'zbekiston hududida turli tarixiy davrlarda qabul qilingan Konstitutsiyalar. Bular jumlasiga "Temur tuzuklari"dan tortib sovet davridagi o'ndan ortiq Konstitutsiya kiradi. O'z xarakteriga ko'ra, bu Konstitutsiyalar mustamlaka, protektorat davlat Asosiy Qonunlari edi. Bunday Konstitutsiyalar XX asrning birinchi yarmida Suriya, Livan, Misrda ham bo'lgan.

Uchinchidan, o'n ikki yillik konstitutsiyaviy amaliyotimiz bir qator chet el davlatlari uchun tajriba o'rganish obektiga aylanmoqda.

Jahon konstitutsiyaviy tajribasi quyidagi yoʻnalishlarda oʻrganilgan va hisobga olingan.

Birinchidan, konstitutsiyaviy tartibga solish prinsiplari. Bu-insonparvarlik va inson huquqlari, hokimiyat vakolatlarini taqsimlash, xalqaro huquq ustuvorligi, Konstitutsiya ustunligi, Konstitutsiyaviy nazorat.

Ikkinchidan, Konstitutsiyaning tarkibiy tuzilishi, yaʼni uni muayyan tartibda muqaddima, boʻlim, bob va moddalardan iborat joylashtirilishidir. Bunda asosiy mezon boʻlib "Xalqchilik" hisoblanadi.

Uchinchidan, har qanday siyosiy mafkuradan voz kechganlik, yaʼni bir mafkuraning yakka hokimligiga chek qoʻyganlik. Koʻp fikrlilikning huquqiy asoslarining yaratilganligi.

Toʻrtinchidan, konstitutsiyaviy kafolatlar. Konstitutsiyaning ustunligi, Konstitutsiyaviy Sudning tashkil etilishi, Prezidentning davlat boshligʻi sifatida barqarorlik, tinchlik va inson huquqlarining kafolatchisi ekanligi, Konstitutsiyaga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritishning alohida tartibining joriy kilinishi asosiy Qonun qoidalarining kafolatlanganligini koʻrsatadi.

Beshinchidan, konstitutsiyaviy tartibga solishning sharqona va ovroʻpacha yondoshuvini uzviy uygʻunlashganligi. Inson, oila, jamiyat, davlat manfaatlarining muvofiqlashganligi bunga yaqqol misol boʻla oladi.

Oltinchidan, Konstitutsiyaning tili ixchamligi, loʻnda va ravonligi. Jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy munosabatlar konstitutsiyaviy darajada tartibga solinadi.

Yettinchidan, Konstitutsiyamiz jahon konstitutsiyaviy taraqqiyoti qonunlarini oʻzida aks ettiradi. Asosiy maqsad: totalitar tuzumdan fuqarolik jamiyatiga, huquqiy demokratik davlatga oʻtishdir.

O'zbekiston milliy mustaqilligining samarasi bo'lmish birinchi konstitutsiya o'zbek xalqi uchun eng buyuk yutuq hisoblanadi.

Asrlar mobaynida diyorimizda tartib va intizomga e'tibor berish an'anaviy tus olgan. Qadimiy hoqonliklar davridan tortib, Temuriylar davrigacha va undan keyin vujudga kelgan davlatlarda mamlakatning mustahkamligi va milliy manfaatlarini ko'zlab turli qonun-qoidalar ishlatilgan.

Bu o'rinda, ayniqsa, Sohibqiron Amir Temurning "Tuzuk"lari va davlatni boshqarish uchun tuzgan qoidalari tarixiy ahamiyatidir. O'zbekiston Konstitutsiyasi O'zbekiston xalqining mustaqilligi, hur fikrligi, barcha insoniy huquqlarga to'la erishib, o'z diyorida huquqiy demokratik davlat qurish imkoniyatini ta'minlash uchun buyuk va e'tiborli milliy-tarixiy vasiqa (hujjat) hisoblanadi.

"Shaxsan men, - deb yozadi president Islom Karimov,- "Temur tuzuklari" ni har gal o'qir ekanman, o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman"¹²

O'zbekiston Asosiy Qonunining loyihasi respublika Prezident rahbarligida tayyorlanib, umumxalq muhokamasiga tavsiya etilgan edi. Bildirilgan fikru mulohazalar Toshkent shahrida 1992- yil 26-28 noyabrda xalqaro miqyosida o'tkazilgan "O'zbekistonda konstitutsiyaviy qurilish va huquqiy davlat muammolari" mavzuidagi tajriba almashuvlarda inobatga olinib, mas'ul komissiya tomonidan Konstitutsiya mazmunini yana boyitish uchun foydalanildi.

O'zbekistan Konstitutsiyasining muqaddimasida o'zbek xalqi nomidan:

- inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqlik e'lon qilinadi;

¹² Karimov.I.A "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T.: 45 b 2008.

- xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalar ustunligi tan olinadi;

- insonparvar demokratik davlat barpo etishi ko'zlanadi;

- fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini taminlash maqsad qilib quyiladi.

Mazkur muqaddimada zikr etilgan bu asosiy prinsiplar, boshqa bir necha qoidalar bilan birga O'zbekiston Asosiy Qonunining ichki mazmuni, ruhi va mohiyatini ifodalab, unda kiritilgan 128 moddaning yo'nalishini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi barcha demokratik qoidalar, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanib, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan barcha davlatlar tomonidan tasdiq etilgan inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha qadriyatlarini o'zida aks etdirgan milliy-tarixiy hujjatdir.

Konstitutsiya o'zbek xalqiga milliy, demokratik huquqiy davlat soyasida yashash uchun huquqiy sharoit yaratib berib, ularni bozor iqtisodiyotiga va bu yo'ldan yanpi hayot ufqlari tomon yo'llab boradi, hamda O'zbekiston Respublikasiga jahon miqyosida demokratik davlatlar qatorida yuksak va e'tiborli o'rin tutish uchun yordam beradi.

XULOSA.

Sharq huquq falsafasi ko'p qirrali ilm sifatida turli taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Ushbu sodda ko'rinishli, biroq ichki mazmun va mohiyati jihatidan g'oyat murakkab hamda boy bo'lgan bu ilmni har tomonlama o'zlashtirish uchun uning uzoq tarixga ega o'tmishi, teran ildizlari, asosiy manbalari, g'oyalari, ustuvor yo'nalishlari va oqimlarini ilmiy uslubda tanqidiy tadqiq qilmoq zarur.

1.Sharq huquq falsafasi, ya'ni Qur'oni Karim va Sunnaga asoslangan fiqh, ilmi va boshqa shariat ilmlari, tasavvuf ahloq (etika) ilmlari, ularning keng qamrovli atamalarini o'rganildi.

2.Abu Hanifa turli siyosiy va ijtimoiy hodisalarga to'la bo'lgan ikki davr - Umaviylar va Abbosiylar davrlarida yashab, ilmiy faoliyat olib borgan va davlat hokimiyati birinchi suloladan ikkinchi sulolaga o'tishining guvohi bo'lganligini o'rganildi.

3.Ushbu ishni yozishda Islom huquqi shakllangandan keyin hanafiy mazhabi ta'limoti Abu hafs Kabir Buxoriy (768-832) orqali tarqatildi. U bir guruh buyuk faqihlar, jumladan o'z o'g'li Abu Hafs Sag'irni tarbiyalab, Buxoro shahrini fiqh ilmi markaziga aylantirganligini ko'rsatib berdik.

4.O'zbekiston hududida fiqh ilmi va hanafiy mazhabi tarqalgan ikkinchi markaz Samarqand shahri edi. Mashhur faqih va muhaddis Abu Sulaymon Jo'zjoniyni shogirdi, imom Abu Mansur Moturidiyni birinchi ustoz Abu Bakr Jo'zjoniyni hanafiy mazhabining atoqli vakili sifatida ushbu ta'limotni tarqatishga katta ulush qo'shganligi aniqlandi.

5.Islom huquqi - nufuzli, amalga oshirish zaruriy bo'lgan yurish turish, odob-axloq, diniy, huquqiy qoidalar majmuidir. Islom huquqi falsafani o'zida mujassam etgan, qonun etikasi fiqh ilmida kashf etilgan. Fiqh ilmi ham buyuk allomalar va huquqiy tafakkur egalari mehnatlari bilan rivojlanganligini asoslandi.

6.Tasavvuf ta'limoti markazida inson mohiyatini tushunib olish, uni tubanliklardan qutqazib, ruhidagi ma'naviy tomonlarni yuksaltirish va komil inson maqomiga ko'tgarish g'oyasi yotadi.

Mustaqillik tufayli tarixga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarishi biz o'z tariximizni, jumladan, ona zaminimizda tuzilgan va ravnaq toptan davlatlar va huquqiy tizimlar tarixini xolisona, mafkuraviy aqidalarni xolisona o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Adabiyotlar royxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston". 2012
2. O'zbekiston Respublikasiniig "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisidaiga Qonuni (yangi taxrir). O'zbekistonni yangi Qonunlari. - T. 19, T.: "Adolat", 1998.
3. Karimov.I.A O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: 2011.
4. Karimov I.A. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar 7-jild. -T.:, «O'zbekiston», 1999,
5. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. - T.: 1999.
6. Karimov I.A. "Islom ziyosi-o'zbekim siymosi"da Toshkent Islom universiteti, 2005.
7. Karimov I.A Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari - eng oliy qadriyat. T.: "O'zbekiston", 2005. -48 b.
8. Karimov I.A O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.: "O'zbekiston", 2005.
9. Karimov I.A Bizning bosh maqsadimiz - jamiyat demokratlshltirish va yangiligi, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: "O'zbekiston".-96 5.
10. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001.
11. "Avesto" kitobi tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai mazmunidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. T.: 2000.
12. Abduhamedov A.E. Dinlar tarixi. T.: O'zMU, 2004.- 208 b.
13. Azimov.A Islom va hozirgi zamon. -T.: 1992.
14. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muxammed ibn Ismoil Al-Jome as-sahih (ishonchli to'plam), 4 jildlik T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1999.

15. At -Termiziy. Sahihat -Termiziy. A.Abdulla tarjimasi. T.: F.Gulom islomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1993.160 b.
16. Ahmad Yassaviy Hikmatlari. T.: G`ofur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1991. -256 b.
17. Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Beruniy AR. Tanlangan asarlar. 1 tom. T.: 1968.
18. Buyug siymolar, allomalar: O`rta Osiyolik mashhur mutafakirlar va donishmandlar. K. 1. T.: "O`zbekiston", 1995.- 101 b.
19. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma`naviy - ma`rifiy asoslari. "Toshkent Islom universiteti" nashriyoti - matbaa birlashmasi. T.: 2005.
20. Imom al- Buxoriy. Al,- Adab al -mufrad. T.: "O`zbekiston", 1990.
21. Isxoqov M.M. Xal dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida). "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2-son, 1992.
22. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi 1 - kitob. T.: Yozuvchi, 1996.-272 b.
23. Maxmud, Shayx Ismoil. Toshkentdagi Usmon musxafiyning tarixi. T.: 1995.
24. Maxmudov T. "Avesto" haqida. T.: 2000.
25. Muminov A. va boshqalar Dinshunoslik (darslik). T.: "Mehnat", 2004.
26. Uvatov U. Buyuk muhaddislar: Imom al -Buxoriy, Imom Muslim, Imom at -Termiziy. T.:O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1998.
27. Xasanov A.A Makka va Madina tarixi. T.: 1992.
28. Xusniddinav Z.M. Islom yo`nalishlari, mazxablar, oqimlar T.: "Movarounnaxr", 2000.
29. Zaxrullo A. "G`oyalar kurashi". Toshkent Movarounnaxr, 2000.
30. Otamurodov S, Xusanov.S, Ramatov.J. Ma`naviyat asoslari T.: 2002.

31. Xoja Ismatulloh Abdulloh Markaziy Osiyoda islom madaniyati. T.: 2008.

32. At Termiziy Sahih at Termiziy A.Abdullo tarjimasi – T.: G`G`ulom nomli “Adabiyot va san’at”. 1993.

Elektron ta’lim resurslar

1. Jamiyat va boshqaruv jurnali - www.rzultacademvfreenet.uz
2. Moziydan sado jurnali - www.moziy.dostlink.net
3. Ziyonet - www.zivonet.uz